

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA  
MILLAT VA MILLIYAT MASALALARINING YORITILISHI**



## **MUNDARIJA**

### **Kirish**

#### **I bob. Behbudiy publitsistikasida Vatan milliy g‘oya va millat tarixi masalalarining yoritilishi**

- 1.1. Adibning milliy g‘oyaga doir qarashlari.
- 1.2. Behbudiyning Vatan va millat tarixiga oid fikrlari.

#### **II bob. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy publitsistikasida milliyat masalalari**

- 2.1. Behbudiy milliyat asoslari haqida
- 2.2. Adib ijtimoiy-siyosiy maqolalarida millat manfaatlarining ifodalanishi.

### **Xulosa.**

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Millat va milliyat masalalari barcha zamonlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Lekin XX asr boshlarida jadidlarimiz bu masalani hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga qo‘ydi. O‘tmishda din birligining timsoli hisoblangan “millat” tushunchasini aynan jadidlar til birligiga tayanuvchi etnik atama sifatida qo‘lladilar. “Milliyat” – milliylik, millatning o‘zligi, qadriyatlari, butun borlig‘i demakdir. Ma'rifatparvar jadidlar o‘zlarining she'riy, nasriy va publisistik asarlarida millat va milliyat masalalarini ko‘tarib chiqish orqali millatni o‘zligini anglashga, ma'rifatga da'vat etdilar. Bu mavzu, ayniqsa, publitsistikada keng yoritildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Hamza, Abdulhamid Cho‘lpon singari ma'rifatparvar jadidlar millat tanazzulining sabablari, uni jaholatdan qutqarish yo‘llari, taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan omillar haqida o‘tkir publisistik maqolalar yozdilar. Jadid publitsistikasi, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning publisistik maqolalari mutaxassislarimiz tomonidan ko‘p o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, bu davrda yaratilgan publisistik asarlarda millat va milliyat masalalari qanday yoritilgani, mutafakkir jadid adiblari matbuotdagi chiqishlarida milliy o‘zlikni asrash, rivojlangan millatlar darajasiga yuksalish muammosiga qanday munosabat bildirgani alohida o‘rganilgan emas.

Mutaxassislar milliy uyg‘onish davri deb ataydigan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi adabiy jarayonni, bu davrda yashab faoliyat ko‘rsatgan, millatni yuksak madaniyat va ma'rifatga targ‘ib etgan ma'rifatparvar ijodkorlar, ayniqsa, Turkiston jadidchiligining karvonboshisi Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini o‘rganish bugungi kunda, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “..jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslang. Nega bu o‘lkada o‘scha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor

Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani uyg‘otishga, xalqning ko‘zini ochishga faqat ma’rifat orqaligina erishish mumkin edi”<sup>1</sup>.

Masalaning ana shu jihatida e’tibor bersak, jadid adabiyotining yetuk namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy publisistik maqolalarida millat va milliyat masalalarining yoritilishi muammosini alohida o‘rganish o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega ekani ma'lum bo‘ladi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Mahmudxo‘ja Behbudiy publisistik merosini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olim professor Begali Qosimovdir. Olimning “Izlay-izlay topganim”, “Milliy uyg‘onish: ma’rifat, jasorat, fidoyilik”<sup>2</sup> kabi monografiyalarida, uning rahbarligida yozilgan oliy o‘quv yurtlari uchun “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligi<sup>3</sup>da jadid publitsistikasi, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning publisistik maqolalarida ko‘tarilgan muammolar keng va atroflicha o‘rganilgan. Mutafakkir asarlarida millat va milliyat masalalarining yoritilishi masalasi yuzasidan ham e’tiborga loyiq fikrlar aytilgan.

Akademik Naim Karimovning “XX asr adabiyoti manzaralari”, “Adabiyot va tarixiy jarayon”<sup>4</sup>, filologiya fanlari nomzodi Boybo‘ta Do‘stqoraevning “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi”<sup>5</sup> kabi kitoblarida Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati, adib publisistik asarlarining mavzu ko‘lami, ularda ko‘tarilgan muammolarning bugungi kun uchun ahamiyati kabi masalalar tahlil etilgan.

Professor Ulug‘bek Dolimovning “Milliy uyg‘onish pedagogikasi”<sup>6</sup> monografiyasida jadid publitsistikasida ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi, jadid mutafakkirlarining axloqiy-estetik qarashlari, avlod tarbiyasi borasidagi fikrlari tadqiq qilingan. Professor Bahodir Karimovning “Jadid munaqqidi Vadud

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997, 137-бет

<sup>2</sup> Қосимов Б. Излай-излай топганим. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1983; шу муаллиф. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: “Маънавият”, 2002.

<sup>3</sup> Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. . – Т.: “Маънавият”, 2004.

<sup>4</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. - Т.: “Ўзбекистон”, 2008; шу муаллиф. Т.: “Мумтоз сўз”, 2013.

<sup>5</sup> Дўсткораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. - Т.: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2009.

<sup>6</sup> Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. - Т.: “Noshir”, 2012

Mahmud”, “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur”<sup>7</sup> kabi kitoblarida jadid adiblari va shoirlarining adabiy-tanqidiy qarashlari, adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o‘rniga doir chiqishlari, Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy merosining o‘rganilish bosqichlari chuqur o‘rganilgan. Professor Nurboy Jabborovning “Ma’rifat nadir”, “Adabiyot va milliy ma’naviyat”<sup>8</sup> kitoblarida Mahmudxo‘ja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa jadid mutafakkirlarining millat ma’rifatiga oid fikrlari, millatning jaholatda qolishi sabablari va uni mutaraqqiy xalqlar darajasiga yuksaltirish haqidagi orzulari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo‘raqulovning “Hududsiz jilva”, “Nazariy poetika masalalari”<sup>9</sup> kitoblarida jadidlar adabiy-estetik qarashlarining mohiyati, yo‘nalishlari, nazariy tadqiqi masalalari hal etilgan. Jadid publisistikasi, uning mavzu qamrovi, janr xususiyatlari, ahamiyati haqida e’tibor loyiq fikrlar bildirilgan. Filologiya fanlari nomzodi Qo‘ldosh Pardaev ilmiy ishlarida “Al-Isloh” jurnali va umuman jadid matbuotida nashr qilingan publisistik asarlar, ularda ko‘tarilgan bahs-munozaralar tadqiqiga diqqat qaratilgan<sup>10</sup>. Jadid matbuotidagi bahslar adabiy-estetik va ijtimoiy-axloqiy yo‘nalishda kechganligi aniqlangan. Ushbu mavzuga doir publisistik maqolalar chuqur tadqiq qilingan.

Yuqorida sanalgan ilmiy ishlar jadid publisistikasini tadqiq qilishda, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etgan. Lekin ularda Mahmudxo‘ja Behbudi publisistik asarlarida millat va milliyat masalalarining yoritilishi alohida o‘rganilgan emas. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ustoz olimlarning mazkur tadqiqotlarida erishilgan yutuqlarga tayanilgan holda ushbu masalani maxsus o‘rganish nazarda tutilgan.

<sup>7</sup> Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. - Т.: “Университет”, 2000 ; шу муаллиф. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. - Т.: “Академнашр”, 2014.

<sup>8</sup> Жабборов Н. Маърифат надир. - Т.: “Маънавият”, 2010; шу муаллиф. Адабиёт ва миллий маънавият. Т.: “Маънавият”, 2015.

<sup>9</sup> Жўракулов У. Худудсиз жилва. Шу муаллиф. Назарий поэтика масалалари. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.

<sup>10</sup> Пардаев К. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни. - Т.: “Мухаррир”, 2012.

**Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi** – Mahmudxo‘ja Behbudiy publisistik asarlarida millat va milliyat masalalarining yoritilishi muammosini alohida o‘rganishdan iborat.

**Bitiruv-malakaviy ishining vazifalari.** Ishning maqsadidan kelib chiqib, uning vazifalari quyidagicha belgilab olindi:

- Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy g‘oyaga doir qarashlarini o‘rganish;
- adib publitsistikasida Vatan va millat tarixiga munosabat masalasining yoritilishini o‘rganish;
- ulug‘ ma'rifatparvarning milliyat asoslariga doir qarashlarini, millatning o‘sha davrdagi ahvoli, muammolari, istiqboli singari mavzularni publisistik asarlari misolida tahlil etish;
- millatni taraqqiyotdan ortda qoldirayotgan illatlar tanqidi Behbudiy publitsistikasida qanday namoyon bo‘lganini o‘rganish;
- adibning ijtimoiy-siyosiy publitsistikasida millat manfaatlarining ifodalanishi masalasini o‘rganish;
- mavzu yuzasidan o‘rganilgan materiallar asosida umumlashma xulosalar chiqarish.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqib kirish, har biri ikki faslni o‘z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan.

# I BOB. BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA VATAN MILLIY G‘OYA VA MILLAT TARIXI MASALALARINING YORITILISHI

## 1.1. Adibning milliy g‘oyaga doir qarashlari

O‘tgan asr boshidagi milliy uyg‘onish harakatini Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Jadidshunos Begali Qosimovning ta’kidlashicha: “Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi mакtab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiliginи boshlab bergen birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi”<sup>11</sup>. Buni ulug‘ millatparvarning zamondoshlari ham e’tirof etgani ma'lum. “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o‘sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo‘q deb o‘ylayman”<sup>12</sup>. Mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo‘jaevning Behbudiy haqidagi bu so‘zlarida zarracha mubolag‘a yo‘q. Zero, “Mahmudxo‘ja Behbudiy siyosatshunos va publisist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo‘ldi”<sup>13</sup>.

1913 yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Apreldan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20 avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuotda publisistik maqolalarini bilan muntazam chiqish qila boshlaydi. Uning maqolalarida zamonasining o‘tkir ijtimoiy-siyosiy muammolari ko‘tarilgani ma'lum.

<sup>11</sup> Қосимов Б. Карвонбоши. – Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2006, 5-бет.

<sup>12</sup> Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Уч томлик. I т. – Т., 1970, 57-бет.

<sup>13</sup> Жабборов Н. Марьифат надир. – Т.: “Маънавият”, 2010, 84-бет.

Millat va milliyat masalalariga doir qarashlari uning “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” darsligida, “Duma va Turkiston musulmonlari”, “Xayr ul-umuri avsatuh”, “Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz” va shu kabi maqolalarida ifodasini topgan. Ma'rifatparvar jadidlar ongida yetilib kelgan milliy g‘oya Mahmudxo‘ja Behbudiylar publisistikasida ham yetakchi o‘rin tutadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ustozi Ismoilbek Gasprinskiy 1895 yilda yozgan maqolalaridan birini “G‘oya” deb atagan edi. Uning fikricha, “Xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng ulug‘ kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlangan.

Islom g‘oyalari yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofiga birlashtirdi. Moskva atrofiga birlashuv g‘oyasi qudratli Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlar mavqyeini yevropada sarbaland qildi.

G‘oyasizlik-chi! Millatni zaiflashtiruvchi, turg‘unlikka – tanazzulga olib boruvchi mana shu g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aqlu iste'dodiga guvoh bo‘lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz million xitoylar, hindlar so‘nggi ming yil davomida o‘zlarini ko‘rsata olmay, nega boshqalar yetoviga tushib qoldilar? Sababi – g‘oyasizlik, deb tushuntiradi muallif.

Shundan keyin u Rusiya qo‘l ostidagi musulmonlar hayotiga o‘tadi. “Taassufki, Rusyaning musulmon jamiyatida asl va chinakam g‘oya, orzu yo‘q, – deb yozadi muallif. – Ular yolg‘iz shu kunning, shu daqiqaning manfaati, shu birgina qorinni to‘qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirigidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tushni ta'bir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo‘shiqlar, o‘zi bir qarich, soqoli qirq qarich polvon haqidagi kitoblar ko‘p, ammo miyamizni qoplab olgan jaholatni tarqatguvchi, ahvolimizni tushuntirib berguvchi, taraqqiyot xususida, kelajak xususida o‘ylashga, ilgariga intilishga majbur etadigan biror kitob yo‘q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o‘z oldimizga vazifa va orzu qilib qo‘ymoq kerak emasmi?!”

Shu g‘oya bilan ish tutilsa, milatning jonlanishiga, ma'rifatli avlod shakllanib hayotning go‘zallashishiga Ismoilbek dil-dildan ishonadi. Bugina emas, uni hayot-mamot masalasi deb biladi. Millatning milliy, diniy, insoniy huquqlarini muhofaza qilishda birinchi vosita deb hisoblaydi.

Bu masala Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ham yetakchi o‘rin tutadi. “Bir millatning quvvat va matonati uning saodati va farog‘ati ahlining oz-ko‘pligi bilan emas, a’zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darjasи bilan o‘lchanadi”, – deb yozadi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Xayrul umuri avsatuhо” maqolasida. – Ilm-hunar g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiradi. G‘ayrat va mehnat esa ilmu hunar tufayli samara beradi. Bular o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Qavmining ko‘pchiligi jisman sog‘ bo‘lib, ilmu hunardan bebahra qolishi va hayoti parishon bo‘lib, o‘zini himoya qilmoqdan ojiz holga tushishi mumkin. Ilm-ma'rifatda quvvatli yevropa millatlarining sog‘lom Afrikani asoratga olishlari beziz emas”<sup>14</sup>.

Xo‘sh, buning oldini olish uchun nima qilish kerak? Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallah g‘oyasi millatning ko‘pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidlarimiz olib borgan barcha ishlar— matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, “usuli jadid” maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik hamma-hammasi shunga xizmat qildirildi. Professor Begali Qosimovning yozishicha: “Har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi, jadidlarimiz fikricha ikki shartni taqozo etadi:

1. G‘oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turish-turmushidan, asriy an'analaridan, o‘zligidan va, tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog‘i lozim.
2. Mazkur g‘oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o‘tga aylanmog‘i, so‘ngsiz ishtiyooq hosil qilmog‘i kerak.

Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topmog‘i uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g‘oyalardan foydalanmog‘i zarur. Lekin muhim bir shart bilan. Bu fikr-g‘oyalar millatning qalbi va ongidan o‘tmog‘i, “milliy lashmog‘i” kerak. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi.

<sup>14</sup> Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2006, 148-бет.

Bunda buyuk mas'uliyat ziyoli zimmasiga tushadi. Chunki millat ehtiyojini dil-dildan anglovchi va oldinga boshlovchi ziyoli sinfidir. Buning uchun esa, o'sha ziyolining o'zi "milliy axloq va tarbiya egasi" bo'lmog'i kerak. Bu oson ish emas<sup>15</sup>.

Ismoilbek Gasprinskiy nashr ettirgan "Tarjimon" gazetasi 1884 yilda yozgan edi: "Agar bizim oramizda yaxshi odamlar bo'lsalar, boshlab maktab muallimlaridirlar. Agar bizda foydali odamlar bo'lsalar, bular ham ulardir. Agar oramizda o'ziga hyech bir hurmat, maqtov, shuhrat talab etmay, butun g'ayratini o'quv-tarbiya ishiga, haqiqat yo'liga sarf etgan kishilar bo'lsalar, bular ham muallimlardir..."

Sharaf sizga, muhtaram o'qituvchilar! Sizning fidoyi mehnatingiz qadriga yetmaganimiz uchun, sizni faqirlikda, muhtojlikda qoldirganimiz uchun bizlarni, o'qitgan bolalaringizning otalarini kechiringiz.

Tarixiy taraqqiyot har bir zamonda har bir millat va uning ziyolilari oldiga o'z muammolarini ko'ndalang qo'yadi. Shu ma'noda, o'tgan asr va yangi yuzyillik o'rtaida muayyan mutanosiblikni kuzatish mumkin.

Millat va milliyat masalasiga shu qadar ahamiyat bergen jadidlarimiz millatning o'zları yashagan davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg'otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolarga ham befarq bo'la olmas edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bizni kemirguvchi illatlar", "Muhtaram yoshlarga murojaat", "A'molimiz yoinki murodimiz", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi" kabi maqolalarida davrning benihoya o'tkir muammolari va bu muammolarning muolajasi masalasiga alohida e'tibor berilgani sababi shunda.

"Bizni kemirguvchi illatlar" maqolasi mana bunday so'zlar bilan boshlanadi: "Bizni kemirguvchi illatlar deganda zaxmu maraznimu gumon etursiz? Yoinki, sil, sil-ar-riyau (o'pka sili), maxavliknimu dersiz? Yo'q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh, beg'oya, xonavayron va g'arib etguvchi bir

<sup>15</sup> Косимов Б. Миллий уйғониши: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: "Маънавият", 2002, 67-бет.

dard, biz — turkistoniyarni... inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalataturgon to'y, aza ismindagi ikki qattol dushmani derman”<sup>16</sup>.

Behbudiy millat farzandlari aziz vaqtlarini Vatan va millatni taraqqiy ettirishga, yuksaltirishga sabab bo'luvchi zarur ishlarga emas, to'y, aza va boshqa shu kabi turli marosimlarga, har xil tadbirlarga sarflayotganidan afsuslanadi. “Ko'pkari va uloq chopmoqlik odati mal'unonasig'a har viloyatdan har sana yuzlar ila kishi oxiratg'a ko'char, na qadar kishi ma'yub va majruh bo'lar, – deya kuyinib yozadi u, – ko'p kishilar sayr va ko'pkari shumligi ila ishdan va ziroat vaqtidan qolar... O'n-yigirma chaqirimg'a to'y bo'ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo'yub, otlanib ko'pkariga ketar. Dehqon uchun oltindan aziz vaqt fawt bo'ldi-ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun yog'inga qolib, ba'zi xirmonlar chirib ketar”.

Behbudiy yahudiyarning vaqtini tejash maqsadida o'likni hatto kechasi ko'mishi haqida yozib, har bir daqiqani ogohlikda o'tkazishga, Vatan va millat manfaati yo'lida sarflashga da'vat etadi.

Zinhor-bazinhor bu fikrlardan Behbudiy to'y va aza marosimlariga qarshi bo'lган ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. U to'yga ham, azaga ham qarshi bo'lган emas. Ulug' ma'rifatparvar isrofgarchilikni, dabdababozlikni qoralagan, xolos. Bunga uning quyidagi fikrlari dalil bo'la oladi: “Bizg'a lozimki, to'y va ta'ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo'lub, kelar zamonimizni o'ylayluk... To'y va ta'ziyag'a sarf qilinadurg'on oqchalarimizni biz — turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar”.

Ko'rinib turibdiki, allomaning ushbu fikrlari yagona maqsad – Vatan va millat manfaatiga qaratilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy uchun milliy g'oya – millatni taraqqiyotga olib chiqish g'oyasi edi. Buning uchun birinchi navbatda zamonaviy tafakkurga ega yangi avlodni tarbiyalab yetishtirish zarur edi. Adib “Ta'mini istiqbol” deb nomlangan maqolasida bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: “Ulumi

<sup>16</sup> Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2006, 191-бет.

diniya va arabiya ila birga ulumi va fununi jadidai zamoniya va adabiyot Rusiya tafsili bizlarga lozim va to‘rt tur ilmsiz insonlardek yashamog‘imiz darajai imkoniyadin xorijdir... Ulumi diniya va arabiyanı Misr ul-Qohira va Hijoz tartibidek, lisoni forsiy va turkiyning usuli jadida tartibidek o‘z mакtab va madrasalarimizg‘a va fununi zamoniya va adabiyoti Rusiyani rus madrasalarida o‘qimoq kerak”, deb yozadi. Ya’ni millat yoshlaringning zamon ilmini egallashi uchun adib diniy va arabiylarning o‘ziga yetarli emasligini, zamonaliv ilmlarni va rus adabiyotini ham o‘rganish hayotiy ehtiyoj ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olib, publisistik asarlarida o‘lkaning tubjoy aholisi uchun ikki toifa mutaxassis kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu g‘oya uning “Padarkush” dramasida ham ziyoli tilidan bayon qilingan. Jumladan, u mana bunday deydi: “Biz muslimonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniy. Olimi diniy: imom xatib, muddaris, muallim, qozi, mufti bo‘lub, xaloyiqni(ng) diniy va axloqiy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturlar talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmi diniy va arabiylarning bo‘lub, ulumi diniyyani xatm qilsalar kerak... Olimi zamoniy bo‘lmaq uchun bolalarni(ng), avvalo, muslimoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyat diniya va o‘z millatimiz tilini bildurgandan so‘ngra hukumatimizni(ng) nizomiy maktablariga bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilganlaridan so‘ng Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, do‘qturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdu... Shul tariqa o‘qugan muslimon bolalarini Farangiston, Amrika va Istanbul dorilfununlarig‘a tajriba uchun yubormaq kerakdur”.

Behbudiyning bu fikri publisistik asarlarida, asosan, xat-savodli kishilarga mo‘ljallab yozilgan bo‘lsa, dramadagi ziyoli tilidan butun aholiga qarata aytilgan edi. Behbudiy zamonaliv mutaxassislarni xorijdagi dorilfununlarda tayyorlash kerak, degan fikrni ilgari surganining boisi shu ediki, Turkistonda o‘sha payt

mavjud oliy o‘quv dargohi sanalgan madrasalar isloh qilinmagani uchun zamona talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlay olmas edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millat taraqqiysi g‘oyasini ilgari surar ekan, Turkiston va unda yashayotgan xalqlarning boy madaniy o‘tmishi bilan faxrlandi, betakror osori atiqalari, ya’ni tarixiy-madaniy yodgorliklarini ko‘rib iftixor qildi, buyuk allomalari dunyo ilmlari xazinasiga qanday bebaho hissa qo‘sghanligini katta g‘urur ila yozdi. Uning “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnalida bosilgan ushbu mavzudagi maqolalarida, geografiya va islom tarixiga oid kitoblarida bu tuyg‘u yorqin aks etgan. Bugina emas, u butun musulmon olamida san’at, madaniyatga oid benazir obidalarni ko‘rganda, zavqini, hayratini yashirib o‘tirmadi. Publisistning “Sayohat xotiralari” yo‘l ocherkini o‘qigan kishi bunday hislarning yolqinlarini sezishi mumkin. Aksincha, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmisin, hamyurtlari “turkistonlik” degan nomga noloyiq ish qilayotganini ko‘rsa, osori atiqalarning qarovsiz holda yotgani yoki buzilayotganiga ko‘z tushsa, bebaho madaniy va ilmiy xazinalarimizga kishilarning loqayd qaraganini sezsa, u juda qattiq iztirob bilan yozdi.

Behbudiy yaxshi ma’nodagi «millatchi», to‘g‘rirog‘i, «milliyatchi» edi. u hyech qachon o‘z millatini boshqa bir millatga qarshi qo‘ymagan, aksincha, dunyodagi barcha millatlarga, shu jumladan, Rus va Ovrupo millatlariga mehr va muhabbat bilan qaragan keng fikrli ma’rifatchi edi. U tilni, shu jumladan, Ovrupo tillarini ilm-fan kaliti deb hisobladi. «Ikki emas, to‘rt til lozim» deb chiqdi. Buyuk ma’rifatparvar har bir turkistonli o‘z ona tilidan tashqari fors, arab, rus, hatto fransuz tilini bilmog‘i kerak, aks holda dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi degan fikrda edi.

Mutafakkirning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush sharoitlariga ko‘ra to‘rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlangan. O‘zbeklar ona tillari o‘zbekchani, mumtoz adabiyot tili bo‘lgan forschani, madrasa tili bo‘lgan arabchani, davlat tili – rus tilini bilsalar, ijtimoiy munosabatlarda, ilmiy va adabiy adabiyotlarni o‘rganishda, umuman, turmushda qiynalmaydilar. Xuddi shu kabi tojiklar ham ona tillari – tojikchani bilganlari

holda, yangi adabiyot va matbuot ko‘p nashr etilayotgan turkiy (o‘zbek) tilni, madrasa tili – arabcha va davlat tili – ruschani bilishlari lozim.

“O‘quvchilarga yordam kerak” sarlavhali maqolasida Mahmudxo‘ja Behbudiy turkistonlik yoshlarning o‘z yurtlarida, ichki Rossiyada hamda xorijiy mamlakatlarda dunyoviy va diniy ilm olishlari uchun millatning moddiy jihatdan ko‘magini uyushtirish masalasini ko‘targan. Muallif yoshlarimiz zamona talablariga muvofiq ilm olar ekan, buning natijasida millat naf ko‘radi, har jihatdan rivoj topadi, deydi. “... Bizga muvofiqi zamona odamlar kerak, – deb yozadi Behbudiy,— ya’ni musulmon do‘qtur, musulmon muhandis, musulmon zakunchi, tijoratxonalarda musulmon “agent” ishboshilar, podshohlik mahkamalarida musulmon ma’murlari, musulmon sudyalari, notarus, bonklarda musulmon sarkorlari kerakdir...

Biz xohlasakki, o‘zimizni boshqalarning madaniy va iqtisodiy yutulishidan saqlanilsa, yuqorida aytulgon kishilarni hozirlab, ya’ni olimi zamoniy tayyorlamoqimiz kerakdur. Digar tarafdan zamonadan xabardor olimi diniy yetishtirmoq uchun-da sa'y va g‘ayrat etish-da lozimdur”. Muallif “lozim, lozim” degan bilan ish bitmaydi. Bu “lozim”larga konkret yondashish kerak, degan fikrni bildiradi. “Maktab va madrasalarning usuli ta’limini isloh etmoq kerakligi, – fikrini davom ettiradi u, – ko‘zi ochiq kishilarga ma'lumdur. Ammo bu islohotni kim ijro etar? Ruscha o‘qumoq lozim. Kim o‘qutar? Zamoncha ilmi diniy va zamoniy kerak. Oni o‘zi bo‘lurmi?” Muallif zamonaviy ilm o‘rganmoqning, xorijga borib, dunyoviy ilm-fan yuzasidan tahsil olmoqning bid’at emasligini, aksincha, payg‘ambarimiz aytganlaridek ish tutish ekanligini isbotlab beradi. Maqolasining xotimasida muallif yoshlarga ilm fan o‘rgatmoq bugun millatning vazifasi, degan xulosa chiqaradi. “Zamonaviy odamlar yetushturmoq uchun hukumat maktablariga, maktablarni islohi uchun O‘renburg, Qozon, Qrim, Kavkaz va Istanbul maktablarig‘a, madrasalarni islohi uchun Makka, Madina va Misrg‘a talaba yubormoq kerakdur. Va har bir shogird uchun har sana 300 so‘mdan 600 so‘mgacha aqcha lozim, Va bu shogirdlarni muddati tahsili to‘rt yildan o‘n ikki yilgacha bo‘lur. Bu kundan harakat qilinsa, to‘rt-besh yildan so‘ngra natijasi

ma'lum bo'lur. "O'quvchilarga yordam jamiyat" ochmoq, yoshlarni himmati va hamiyatig'a mavqufdur. Hukumat ham bu ishga yaxshi ko'z ila qaraydur. Yoshlardan himmat va g'ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak".

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Til masalasi" ("Oyna" jurnali, 1915, 11-12-sonlar) maqolasi Turkistonda turk tilini soflashtirish mavzuiga bag'ishlangan maqolalarga, birinchi galda "Sadoi Turkiston"dagi chiqishlarga munosabat tarzida e'lon qilingan. Muallif yozadi: "Tilimizdan forsiy va arabiyni quvayluq" – bu gap yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandir". Negaki, "Toshkand", "Xo'qand" va boshqa minglar ila jug'rofiyoviy ismlarni rajoli tarixiya va yoinki tarixiy voqyealarni mahalliy va mashhur odamlarni va oy ham yili, kuni va ...larigacha tag'yir berib, turkiy ismlar toqib, alarg'a yangi lug'atlar tayyorlab, yangidan tadvin etmoq lozim kelur". Forscha va arabcha so'zlar o'rniga qadimgi turkiy so'zlarni tiklash mushkullik tug'diradi, "Hamda ming yil avvalgi tilg'a qaytmoq qonuni tabiatga muxolifdur. Chunki moziyga ruju' mumkin yo'q. Begona tildan so'z olmoqdan qutulgan til yo'qdur ... Xulosa fikrimiz shuki, yalg'uz turkcha so'ylamak va yozmoq abadan mumkin yo'q. Baqadri imkon arabiylari va forsiyni oz yozayluq".

Behbudiylar millat ravnaqi uchun universitetlar lozimligini dil-dildan his qildi. 1918 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston musulmon dorulfununini chin yurakdan tabrik etdi. O'sha yili Samarqandda uning sho'basini ochib, bugungi Milliy universitetimizning maydonga kelishida o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Jadidchilikning bosh g'oyalaridan biri millatni uyg'otmoq, uni yangi turmushga tayyorlamоq edi. Bu degani jaholat va nodonlikka, xurofot va bid'atga qarshi kurashmoq edi. So'nggi to'rt asrlik tanazzul va ayniqsa, rus istilosiga tufayli o'zining zakiylik, shijoatlilik, tirishqoqlik, topag'onlik, ahillik, mehnatsevarlik, xushaxloqlik, ayniqsa, erk va bilimga chanqoqlik kabi asliy xususiyalarini yo'qotib, o'z-o'zini mahv etib borayotgan millatni uyg'otish, unga o'zligini anglatish kerak edi. Uni kundan-kun xor va zalil qilayotgan «kim o'zarga» to'ylardan, aqidaparstlikdan, «madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan «vahshiylik»dan saqlamoq kerak edi. U o'zining butun ongli faoliyatini shunga

qaratdi. Shu yo'lda qurban bo'ldi. Lekin jisman mahv etilgan bo'lsa-da, uning nomi Millatning nurli istiqboli yo'lidagi beqiyos xizmatlari bugungi va kelajak avlodlar qalbida mangu yashayajakdir.

Umuman, Mahmudxo'ja Behbudi publisistik asarlarida milliy g'oya – millatga o'zligini anglatish, uni taraqqiy etgan xalqlar darajasiga yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Vatan va millat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlar qattiq tanqid qilindi. Zamon talablaridan kelib chiqib, millat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

## **1.2. Behbudiyning Vatan va millat tarixiga oid fikrlari**

Turkiston jadidlari rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiylar tarixni o‘rganmoq millat ma'rifatini yuksaltirishning asosi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ma'rifatparvarning fikricha, tarixni bilmay, undan saboq olmay turib bir qadam ham olg‘a yurib bo‘lmaydi. Uning tarixdan ibratlanish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaragani sababi ham shunda. Bu esa, o‘z navbatida, Vatan va millatning inqirozga yuz tutishi sabablarini anglash imkonini beradi. Shunga ko‘ra, Mahmudxo‘ja Behbudiylar fikricha, tarixni o‘rganish, undan ibrat olish – ma'rifat, undan g‘ofillik esa jaholat belgisi sifatida baholangan. Tarixni bilmay turib Vatan va millatning taraqqiy etishi, saodatga erishmog‘i mumkin emasligi jadid adabiyoti va uning ajralmas qismi hisoblangan jadid publitsistikasining asosini tashkil etadi.

Tarixni o‘rganish hamma zamonlarda ham muhim va ahamiyatli hisoblangan. Zero, har qanday millatning buguni va istiqbolini uning o‘tmishidan, tarixidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois asrimiz boshidagi ma'rifatparvarlar, xususan, Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiylar tarixni o‘rganish, undan saboq olish masalasiga alohida e'tibor berdi. “Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni qul-marquq derlar”<sup>17</sup>, deb yozgan edi Behbudiylar “Sart o‘zi majhuldur” sarlavhali maqolasida.

Behbudiyning “Turkiston tarixi kerak” degan maqolasi tarixni o‘rganish zarurati haqida qimmatli fikrlar bildirilganligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Unda quyidagilarni o‘qiyimiz: “Tarix ko‘p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba’zisi ushbudurki, bir millatning na tariqada, qaysi yo‘l ila taraqqiy etganin o‘qib, ibrat olmoq yoki millatning ne sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo‘lub ketganin o‘qub, mundan ham istifoda etmak mumkindur”<sup>18</sup>.

Behbudiyning tarixni o‘rganish ahamiyati haqidagi bu xulosasi hazrat Navoiyning quyidagi o‘gitlarini esga soladi:

<sup>17</sup> Бехбудий Маҳмудхўжа. Таъланган асарлар. - Т.: “Маънавият”, 2006, 196-бет.

<sup>18</sup> Ўша манба, 179-180-бетлар.

*Va gar tarix sori aylagung mayl,  
Muni bilgachki, ne ish qildi har xayl.  
Ne ishdin mamlakat obod bo 'ldi,  
Qayu ishdin ulus barbod bo 'ldi.*

Demak, Navoiydan Behbudiygacha o‘tgan qariyb to‘rt yuz yildan ziyod vaqt mobaynida ham tarixni o‘rganish, undan saboq olishning ahamiyati to‘g‘risidagi qarashlar mohiyati o‘zgarmagan.

Xo‘sh, hozir-chi? Hozir o‘zgarganmi? Bugun tarixga, ajdodlar kechmishini o‘rganishga bo‘lgan e’tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, haqqoniy tariximizni tiklash masalasi bilan bevosita mamlakat rahbarining o‘zi qiziqayotgani Vatan va millat taraqqiysi yo‘lida tarixdan foydalanishga bo‘lgan intilish natijasi sifatida baholanmog‘i kerak.

“Turkiston tarixi kerak” maqolasida Behbudi yana quyidagilarni yozadi: “...bizning o‘z shevamizda Turkistonda o‘tgan bobolarimizning maishiy, siyosiy ahvolig‘a doir “Turkiston tarixi” bor bo‘lgonda, oni ko‘z oldimizda qo‘yub, burung‘i qahramon bobolarimizning na yo‘l ila taraqqiy va madaniyat davrig‘a kirub va nima sababdan oxiri munqariz bo‘lub ketganlarini o‘qub, bilub, xeyli ibrat olar eduk. O‘shandoq hozirgi holimizni bobolarimiz davridagi hollarg‘a bir daraja muqoyasa etmak ila barobar o‘z-o‘zimizdan bir infioli daruniy (ichki hayajon) his edub, yuzlarimiz qizarar edi. Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g‘ofil va bexabardurmiz”.

Ma'lumki, Behbudiya qadar juda ko‘p tarixiy asarlar yozilgan. Ko‘plab muarixlar Turkiston tarixining eng qadimgi davridan to o‘z zamonlarigacha bo‘lgan voqealarni xronologik tarzda yozib qoldirganlar. Xo‘sh, unda Behbudiy nima sababdan Turkiston tarixi yaratilmagan, degan fikrni ilgari surmoqda?

Ulug‘ ma'rifatparvarning o‘zi bunga quyidagicha izoh beradi: “Chunki hanuz Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgan, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudg‘a kelgani yo‘q. To‘g‘risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o‘g‘lonlaridan hanuz maydonga chiqg‘oni yo‘qki, bu esa turk bolalarining

noxalaf bo‘lub, chin o‘g‘ul emasliklarig‘a dalildur. Bu so‘zlardan tarixsizligimiz anglashilmasun. Bizning tariximiz bor”.

Yuqoridagi iqtibosni tahlil etar ekan, professor Nurboy Jabborov shunday fikr bildiradi: “Behbudiy zamon talablari darajasida, “yangi tadqiqot ila yozilgon”, mukammal “Turkiston tarixi”ni orzu qilmoqda. Uning fikricha, ruslar va boshqa ovrupoyilar foydalanayotgan Turkiston tarixiga bag‘ishlab burungi asrlarda yozilgan turkiy, forsiy va arabiylardagi tillardagi kitoblar “muxtalif tillarda yozilgan”. Ya’ni ularda bir hodisa turlicha talqin etilgan, bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar ko‘p. Behbudiy ana shu farqli jihatlar tadqiq etilgan mukammal tarixni yaratish zaruratinini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bu juda dolzarb muammo edi. Binobarin, Behbudiyning fikricha, haqqoniy tarixdan xabardor bo‘lmasdan turib, hyech bir millat o‘z ahvolini tahqiq eta olmaydi. O‘z tarixidan g‘ofil va bexabar millat esa taraqqiyotdan ortda qolishi aniq”<sup>19</sup>.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston tarixini yaratishi mumkin bo‘lgan yagona olim sifatida tilga olgan zamondoshi Ahmad Zaki Validiy “Bugungi turk eli – Turkiston va uning yaqin tarixi” asarining alohida bir bobida millatimizning asriy xususiyatlari, milliyatimiz haqida fikr yuritadi. Jumladan, muallif quyidagilarni yozgan edi:

“Biz fursat kutgan millatlardanmiz. Milliy qudratimizni shunday bir ko‘zdan kechirsak, O‘zbekiston fuqarolari barobarida qozoq, qirg‘iz, tatar va boshqirdlarning, ya’ni “o‘rta turk” deb ataganimiz turklarning va turkmanlarning madaniy quvvati, tabiiyki, Afg‘onistondan va Erondan kam emasdир. Turkistonda o‘z millatimizdan yetishgan mutaxassis va olimlarning miqdori O‘rta va Old Osiyo davlatlaridan birgina Hindiston va Turkiyadangina ozdir. Ayniqsa, savdo, san’at va dehqonchilikda turkistonliklarga hyech bir kishi bas kela olmaydi. Bu masalalarda ovrupoliklar bilan ham juda a’lo darajada raqobat eta oladilar. Farg‘ona paxta zavodlaridagi, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon va Buxorolik turk ishbilarmonlarining tajribasi Rossiya hukumati yevropali sarmoyadorlarini himoya qilmagan taqdirda

<sup>19</sup> Жабборов Н. Маърифат надир. - Т.: “Маънавият”, 31-бет.

vaziyatni xohlagan paytlarida o‘z qo‘llariga ola bilishlarini ko‘rsatmoqda. Minglarcha yillar mobaynida takomillashib borgan irrigatsiya va dehqonchilik madaniyatining boshqa sohalarida turkistonliklarga Sharqda birgina hindlar va xitoylar raqobat eta oladilar. Rus dehqoni hyech ham raqobat qila olmaydi. Holbuki, iqtisod, tijorat va ziroat har qanday mamlakatda davlatning ham asosidir. Xullas, ajnabiy zo‘ravonlik va istilo o‘rtadan qalqib hurriyatga erishishi bilan bu jihatlardan Turkistonda turkistonliklarga raqobat eta oladigan hyech bir kimsa yo‘qdir...

...ba’zi odamlar rusga tobe' turklarning, xususan turkistonliklarning milliy harakati hali juda ibtidoiy bosqichdaligini, ingliz, nemis va rus millatlarining bugungi yangi davr tarixini ag‘dar-to‘ntar qilgan qudratli milliy shuurlari, milliy madaniyatlarining ulug‘vorligi qarshisida O‘rta Osiyoliklarning dovdirab qolishlarini, bir kun o‘z taqdirlarini o‘zgartirish imkonini tug‘ilganda ham undan foydalana olmayajaklarini so‘yaydilar. Lekin turk millatining shunday mumtoz qavmiy xususiyatlari bordirki, ularni uyg‘otib ishga solishga muvaffaq bo‘linsa, yo‘qotgan narsalarini oz bir muddatda tiklay oladi”<sup>20</sup>.

Ahmad Zaki Validiy millatimizning tarixdagi qudrati, oljanob fazilatlari haqida so‘z yuritar ekan, fikrlarini rad etib bo‘lmaydigan tarzda isbotlaydi. Uning bu xususdagi qarashlari o‘tgan asrda qanchalik ahamiyatli bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida shunchalik qimmatlidir. Alloma yana quyidagilarni yozadi:

“Minglarcha yillik tariximizdan qizil ip bo‘lib o‘tgan milliy xususiyatlarimizdan biri jonlilik va bitmas faollikdir. Qadim tarixda Osiyoda va Ovrupoda turkiylar va mo‘g‘ullar aralashmagan birorta buyuk baynalmilal hodisa bo‘lgan emas.

Turkiylar birorta shunday mamlakatga kelmaganki, oxirida u jamiyatning tepasiga ko‘tarilmagan bo‘lsin.

---

<sup>20</sup> Бу ҳақда қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: “Маънавият”, 2002, 71-72-бетлар.

Haqiqatan ham shunday bo‘lgan. Xitoy, Hind, Eron va Misrga qul sifatida keltirilgan turkiylar ko‘p vaqt o‘tmay, u yerdagi siyosiy hayotda rol o‘ynay boshlaganlar va ko‘p martalab butun davlat idorasini boshqarganlar... Turkiylarning haqiqiy milliy sajiyasi mana shunday. Ya’ni har doim hayotning qoq o‘rtasida, kurash maydonida bo‘lmoq va har yerda o‘zining kimligini ko‘rsatmoq. Tarixan u hyech vaqt bosilgan nuqtada bir lahza qolmay, rezinaday o‘rnidan qalqqan yoki g‘ijimlab ezmoqchi bo‘lgan hovuchning ichidan simobday sirg‘alib chiqqan”<sup>21</sup>.

Zaki Validiy fikricha: “Turkiylarning butun tarixiy takomili davomida ko‘zga tashlangan eng ayon irqiy xususiyatlaridan biri ham tarixning biz bilgan davridan buyon askar bo‘lib kelganligi, intizomsevarligi, hayotning eng og‘ir mushkulotiga ham tayyor turmoq, mashaqqatlariga uzoq muddat sabrli bo‘la olishidir. Qadimgi turkiylar o‘zlarini mana shu jihatdan tarbiyalashga favqulodda ahamiyat bergenlar va kishini bo‘shashtiradigan farog‘atdan, xotinchalish qilib qo‘yadigan nazokatdan, vujudni og‘irlashtiradigan yemaklardan saqlanganlar. Ulug‘lar, aslzodalar yonlaridagi askarlardan ortiq ovqat yemaganlar va askar bilan ayni bir sharoitda yashab o‘zlarini maxsus ochlikka, suvsizlikka, issiq-sovuqqqa o‘rgatib borganlar...

Turkiylarning boshqa bir milliy fazilati dunyodagi voqealarga ochiq ko‘z bilan qarashidir. Qadim turkiylarlarning, To‘ng Yabg‘usining, Chingiz, Temur muvaffaqiyatlarining eng katta siri jahon vaziyatini atroflicha ko‘ra olishlarida, undan tamomila xabardor bo‘lishlarida va har bir fursatdan foydalana bilishlarida edi. Bu millat tarixiy hayotining shavkatli kunlarida jahon siyosiy voqealarini tubdan o‘rganib xulosa chiqara olishi jihatidan zamonamizdagi inglizlarga o‘xshaydilar va o‘z xulosalarini vaziyatga tatbiq eta biladilar”<sup>22</sup>.

Zaki Validiyning kuzatishlari islomiyatdan keyingi davrni o‘z ichiga olgan. Ziyo Ko‘k Alpning “Turkchilik asoslari” (1924) kitobida islomgacha bo‘lgan milliy xususiyatlarimiz yaxshi berilgan. Uningcha, qadim yunonlar

<sup>21</sup> Ўша манба, 72-бет.

<sup>22</sup> Ўша манба, 73-бет.

haykaltaroshlikda, rimplilar huquqda, yahud va arab dinda, fransuzlar adabiyotda, anglo-sakslar iqtisodda, olmonlar musiqa va falsafada shuhrat topgan bo'lsalar, turkiylar go'zal xulqlari bilan dovruq qozonganlar.

Ular uchun eng muqaddas narsa el, yurt bo'lgan. El – Ko'ktangrining yerdag'i soyasi. U ishq kechasi bir oltin shu'la bo'lib, yer yuziga eng go'zal daraxtga tushgan. Daraxt Ko'ktangridan homilador bo'lib, undan el to'ragan (tarqalgan). Yurt mana shu el yashaydigan makondir. Ikkinchidan, El – omonlik degani. Elchi – sulhchi, tinchlikni so'rab boruvchi, olib boruvchi degani. Qadimda turkiy xoqonlar boshqa yurtlarni zabit etganlarida hukmronlikni egalarida qoldirib, o'zlari Elxon nomi bilan ularni boshqarganlar.

Xunnlarning ilk Elxoni Metexon Xitoyni ikki marta zabit etib, imperatorligini qabul qilmaganini rivoyatlarda keltiradilar.

Mamlakat ahlini “ich el”, xorijni “chet el” atashning o'ziyoq sulhparvarlikka timsol edi.

El-yurt ideali Vatan va Millat mustaqilligini ta'min etuvchi asosiy omillardan bo'lgan.

Oila axloqiga alohida e'tibor berilgan. Uylanmak – uy egasi bo'lmoqdir. Kelin-kuyovga yangi uy qurib berish shart bo'lgan. Ayollar davlat, xo'jalik, oila ishlarida baravar ishtirok etganlar. “Qadim xalqlar orasida hyech biri turkiylar singari ayollarga bu qadar katta huquqlar bermagan va e'tibor qaratmagan edi”, – deb yozadi Ziyo Ko'k Alp...

“Mana shu xil asliy xususiyatlarimizni anglash va anglatishda ziyorilar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan edi, – deb yozadi professor Begali Qosimov. – Tarix shunchaki xabardor bo'lish uchun o'rganib qo'yilmaydi. U oyna, ibrat, tarbiya vositasi bo'lmosg'i kerak edi. “Oqqan ariqda suv oqadi” – ilgari suv yurgan ariqda suv oqadi, deydilar. Qonda bor narsani tiklash oson. Lekin ularni oldin bilmoq kerak, keyin qanday tiklash masalalarini o'ylash lozim”<sup>23</sup>

.

<sup>23</sup> Косимов Б. Миллий уйғониши: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: “Маънавият”, 2002, 74-бет.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning va barcha Turkiston jadidlarining ustozи Ismoilbek Gasprinskiy “Tarjimon” orqali millatni shavkatli tarixi bilan tanitishga, bugungi zabun holini ko‘rsatishga harakat qildi. U Turkistonga alohida mehr bilan qaradi. Bu zaminning kechmishi bilan bugunini muqoyasa qilar ekan, unga buyuk o‘tmishgina emas, umidbaxsh kelajak ham deb qaradi. O‘z sahifalarida unga keng o‘rin berdi. Feruz va Abdulahadxondan general Jo‘rabekkacha, Furqatdan Cho‘lpongacha doimiy ravishda e’tiborida turdi. Badiiy asarlarining bosh qahramonini turkistonlik qilib oldi. Amir Temurning yovqur, erkparvar, Vatan va Millat sha’nini har narsadan muqaddas tutgan timsolini yaratdi va senzura iskanjasidan olib o‘tib, e’lon qilishga muvaffaq bo‘ldi. Gazeta 1918 yilgacha davom etdi. 3000 ga yaqin soni chiqdi. «Olami nisvon» gazetasi, «Olami sibyon» majallasi unga ilovalar edi. Adadi 5000 taga yetdi. O‘quvchilari dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida bor edi. Uni o‘qimaydigan turkistonlik ziyolini topish mushkul edi.

XIX asrning oxirida yashagan va dunyo ko‘rgan ziyolilarning birortasi ham Turkistonning o‘sha davr ahvolidan qanoat hosil qilmaydi. Ismoilbek xonliklar saltanatining so‘nggi davr ahvolini shunday bayon qiladi:

“Shoh Temur zamoninda har biri bir arslon o‘lan turkistoniylar bu zamonda ta’siri zulm va istibdod ila biror sochsiz xotin, soqolli zaifalar poyasina kirmish edi. Eski ilm va ulamodan ham deyarli asar qolmagan. Xolis va halol (kishi) qolmay, uzun choponlarga, xil’atlarga o‘ralgan riyokor ko‘paygan edi. Zolimlar yo‘lini to‘sadigan shariat ahli tugab, zolimlarga fatvo topib berib, 5-10 tilla-oltun uchun sabohdan oqshoma qadar “omin”, “omin” aytib, millatni xarob va barbod etganlar sanoqsiz edi. Qanday baxtsizlikki, bir uchi Saddi Chinga, digar uchi O‘rta yer dengiziga chiqqan saltanat bahodirlarining avlodi yoshlikda bachchalik, so‘ng esa bachchabozlik haromliklari ichida umr kechiradirlar edi. Umaro va vukaloning aksari yo Eron asirlaridan, yo bachchalik qilganlardan mansabga ko‘tarilar edi. Shijoat maydonida Temurlarning, Shayboniylarning ismi-shariflari unutilgani kabi ilm maydonida Ibn Sinolar, Forobiylar, maorif maydonida Ali Qushchi, Ulug‘beklar yoddan chiqib, butun Movarounnahr bir xonaqoyi parishon va diyorি

darveshon o‘lmish edi. Ilm, hilm, maorif izzat-nafs va haysiyat (hurmat-e'tibor) riyokorlikka aylangan edi. Bu so‘zlar balki achchiq so‘zlardir, lekin to‘g‘ri so‘zlardir. Tarix yozadigan muarrix madhiya yozadigan mirza emas”<sup>24</sup>.

Mana shu “xonaqoyi parishon” vatanga, “darvesh” va “riyokor”lar millatga aylanmas ekan, Turkistonning kelajagi yo‘qdir. Bu birgina Turkiston emas, bugun Rusiya musulmonlariga tegishli.

Tarixiy taraqqiyot har bir zamonda har bir millat va uning ziyolilari oldiga o‘z muammolarini ko‘ndalang qo‘yadi. Shu ma'noda, o‘tgan asr va yangi yuzyillik o‘rtasida muayyan mutanosiblikni kuzatish mumkin.

“Tabiiyki, – deb yozadi professor N.Jabborov. – tarixni o‘rganish masalasiga shu qadar ahamiyat bergen jadidlarimiz millatning o‘zlari yashagan davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg‘otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolarga ham befarq bo‘la olmas edi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat”, “A‘molimiz yoinki murodimiz”, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi” kabi maqolalarida davrning benihoya o‘tkir muammolari va bu muammolarning muolajasi masalasiga alohida e'tibor berilgani sababi shunda”<sup>25</sup>.

Umuman, jadid publitsistikasida tarixga murojaat, xalqimizning buyuk o‘tmishini o‘rganish, moziydagи Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlagan jihatlardan saboq olish, shu orqali rivojlangan millatlar darajasiga ko‘tarilish kabi masalalar keng yoritildi. Bu mavzudagi maqolalarni bir joyga to‘plash, guruhlashtirish, o‘rganish esa, shubhasiz, bugungi zmonamiz uchun ham katta ahamiyatga ega.

---

<sup>24</sup> Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи (Таржимон, тўпловчи, нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, З.Абдирашидов). - Т.: “Маънавият”, 2006, 109-бет.

<sup>25</sup> Жабборов Н. Марьифат надир. - Т.: “Маънавият”, 31-бет.

## **II BOB. BEHBUDIY IJTIMOIY-SIYOSIY PUBLITSISTIKASIDA**

### **MILLIYAT MASALALARI**

#### **2.1. Behbudiylar milliyat asoslari haqida**

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “millat” va “milliylik” haqidagi fikrlarini tahlil qilishdan oldin bu tushunchalarni mutafakkir jadidlar qanday talqin etganligi masalasiga to‘xtalib o‘tish zarurati seziladi. Professor Begali Qosimov bu haqda fikr yuritar ekan, Ozarbayjondagi “Mulla Nasriddin” jurnalining muharriri, “O‘liklar” dramasi bilan Toshkentning “Kolizey”ida mahalliy xalqni larzaga solgan Jalil Mamadqulizodaning “Millat” nomli maqolasini tilga oladi. Ma'lum bo‘lishicha, millat tushunchasi ilk bor qadim yunon faylasufi, bundan salkam ikki yarim ming yil muqaddam yashagan Demokrit tomonidan qo‘llanilgan ekan. U bu tushunchani “har bir mamlakatning yagona sohibi” deb tushuntiradi. Shundan so‘ng mana qancha zamon o‘tib, XVIII asr fransuz inqilobi davrida bu masala yana o‘rtaga tushdi, biroq hali ham bu tushuncha ayrim xalqlarda shakllanib ulgurgan emas, deb davom etadi adib.

“Bunga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, – deb yozidi Begali Qosimov, – din va irq masalasi, millat va mazhab masalasi turkiy xalqlarda hyech bir zamon chetga surib qo‘yilgan emas. Aksincha, hamisha diqqat-e’tiborda kelgan. Buyuk Navoiy zamondoshlarini ta’riflar ekan, “shams ul-millat”, “zayn ul-millat”, “nur ul-millat” sifatlarini qo‘llaydi. Ehtimol, buyuk bobomizning millat haqidagi tushunchalari u haqdagi bugungi ko‘zqarashlardan birmuncha farqlanar (Masalan, u millat bilan dinni hamisha yonma-yon, hatto sinonim darajasida qo‘llaydi). Biroq fakt shuki, u millatni insoniyatning yashash shakli sifatida tushunadi va uni ma'lum diniy, hududiy, lisoniy qiyofada, muayyan asliy xususiyatlariga ega holda tasavvur etadi. Bunday tushunish XVIII asrdan yevropada konkretlashib bordi va 3-Salim (1789-1807)ning «Nizomi jadid”i, ayniqsa Mustafo Rashid Poshoning 1837 yilgi “Tanzimat farmoni”dan so‘ng Usmonli Turkiyasiga, undan Kavkaz, Volgaboyi orqali Turkistonga keldi. O‘z navbatida, bu g‘oya va tushunchalar bevosita yevropa orqali Rusiyaga yoyilib, undan o‘sha davr chor tuzumi istilohi bilan

aytganda, “g‘ayrirus musulmonlar”ga o‘tdi. “Millat” tushunchasiga yana bir ilova, “Tarjimon” gazetasining 1908 yil 58-sonida muharrirning “Millat” nomli bir maqolasи bosilgan. Muallif “Millat nadir?” – degan savol qo‘yadi va bu boradagi G‘arbu Sharqning nazariyalarini keltirar ekan, yoshligidan qulog‘iga quyilgan “din va millat birdir” degan fikrga to‘xtaldi. Uningcha, bu g‘oyat “eski” nazariya, “siyosiy nazariya”. Uni islom fuqarosi musoviylardan – yahudiylardan olgan. Turklar, eroniylar tarixi shuni ko‘rsatadiki, ular islomlashdilar, lekin arablashmadilar, turklikni, eronlikni saqlab qoldilar. Demak, bu nazariya ilmiy asosga ega emas.

Alibek Husaynzoda 1909 yili “Taraqqiy” (Baku) gazetasida bosilgan “Turklik –askarlik” maqolasida til materiali asosida muhim bir fikrni ilgari suradi. Bizning buyruq maylini anglatuvchi ayrim fe'llarimizda to‘rt-besh qavatli amr ma'nolari bor ekan (masalan: ur, urdir, urdirt, urdirtdir; chiq, chiqar, chiqart, chiqartir, chiqartdirt kabi)ki, boshqa tillarda uchramas ekan. Bu hol turkiylardagi hukm va hokimiyatning g‘oyat qadimligini, buyruqning ko‘pbosqichligi esa davlat idora tizimida eng ko‘hna zamonlardan buyon mansab-martabalar silsilasining qat‘iy intizomi subordinatsiyasiga amal qilinib kelinayotganligiga dalil ekan. Masalan, qo‘shin boshlig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri askarlarga “Qal’aga hujum eting!” demaskan, sarkardalariga “Etdirtiring!” derkan va bu buyruq poyama-poya mingboshi-yuzboshi bo‘ylab tushib kelarkan. “Har bir millatning tili uning hayotining, fikrining, ruhining oynasidir,” – deb tugallanadi maqola<sup>26</sup>.

Jadidlar millatning taraqqiyotinigina emas, yashash, hatto uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda ko‘rdilar. “Milliyat fikriga, bu azim quvvatga hyech bir kuch bas kela olmadi, – deb yozgan edi Yusuf Oqchura. – Yuz minglarcha haybatli qo‘shin bu fikr qarshisida yengildi. Milliyat atalmish bu buyuk qudratga bugun to‘p va miltiq bas kela olmaydi...”

Milliyat tushunchasi birlikni talab qildi. Birlik deyilganda, asosan lisoniy, irqiy, diniy mushtaraklik ko‘zda tutiladi. Shular asosida millatning uyg‘onishi, o‘z-o‘zini anglashida muhim rol o‘ynagan, lekin so‘ngroq asossiz ravishda ayblov

<sup>26</sup> Косимов Б. Миллий уйғониши: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: “Маънавият”, 2002, 65-бет.

vasiqasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy millatchilik kabi tushuncha va atamalar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari o'z davrida milliy g'oya darajasiga ko'tarildi, lekin siyosiy jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo'lmagani uchun zamon qatlarida qolib ketdi.

Dunyoda yashab turgan har bir millatning o'z fe'li-tabiatidan, hayot sharoiti va turmush tarzidan, maslak-e'tiqodidan kelib chiqqan, asosiy tarixiy tajribalari bilan mustahkamlanib, takomillashib borgan va boradigan fikr-qarashlari tizimi bor. Bu tizim millatning borliq va tabiatga munosabatidan tortib, jamiyat, axloq, siyosatigacha bo'lgan qarashlarini qamrab oladi. Bunda ilm-fan emas, qarash-munosabat ko'zda tutilgan. Bu qarashlar o'sha millatning fe'li-sajiyasini, qiyofasini, fe'l-atvorini, intilishini o'zida namoyon etadi. Aslida, milliy mafkura degani – shu. Bu xalq qanday xalq? Tarixiy ona vatani qaerda? Qanday yashab keldi? Kimlar bilan yonma-yon yashab keldi? Do'stlari? Dushmanlari? Do'stga aylangan dushmanlari? Dushmanga aylangan do'stlari? Davlatchiligi, uning kamoli va zavoli. Idora tuzumi, askar tutumi. Zehniyati, zavqi-didi, iymon-e'tiqodi kabi millatning tarixi, turmushi bilan bog'liq o'nlab masalalarni oydinlashtirmasdan, u haqda aniqroq bir narsa deyish qiyin. Lekin shunisi aniqki, milliy mafkura – jamiyat hayotining jon tomiri. U qurisa, millat o'sishdan to'xtaydi, jamiyat buziladi.

Turkiston zabit etilgach, ruslar mahalliy xalqqa "sartlar" deb nom berdilar Nikolay Ostromov shu nomda alohida bir kitob yozganligi hammaga ma'lum. Bu so'z, aslida turli vaqtida turli etnik qatlamga, goho sotsial qatlamga nisbatan aytilgan. O'tgan asrning 10-yillarida bu so'z atrofida yana bahs ketdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy millat sha'nini himoya qilish naqadar muhim ish ekanini chuqur his etadi. Uzoq vaqtlar mustabidlarning o'zbeklarni "sart" deb atashlariga chidab kelgan Behbudiy "Sho'ro" jurnaliga bir material bosilishi munosabati bilan bu siyosatga qarshi o'ziga xos isyon ko'taradi.

Buxoro amirining tarjimoni Bahrombek Davlatshoev "Sho'ro" jurnali tahririyatidan shunday o'rinali savollarga javob berilishini so'raydi: Bizlar aslida turkmi yo sart? yerimiz qadimdan forsiy atama bilan "Turkiston", ya'ni "turklar

istiqomat qiladigan joy” ma’nosini bildiradi, bizning yashaydigan joyimiz “Turkiston” atalgani holda, nega bizni “sartlar” deyishadi? Balki bu yurtda yashovchi turklar keyin boshqa yerlarga ko‘chib ketib, yerlariga biz, ya’ni hozir “sart” deb atalayotgan xalq kelib joylashganmizmi? Agar shunday bo‘lsa, bu voqeа qachon yuz bergen? U holda biz nega “turk adabiyoti”ga o‘zimizni voris hisoblaymiz? “Sartcha til” qanday til bo‘lgan? Ehtimol, biz turklarning “sart” degan urug‘idandirmiz, qay zamonda bizlarni “turk”likdan chiqarib “sart” atadilar? Bizni “sart” deb atashda xayrixohlik bormi yo aksimi? Rossiya Turkistonni zabit etgach, nega ruslar forslar bergen istiloh bilan yerimizni hamon “Turkiston” deb atashgani holda, o‘zimizni sart deydi?

Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu savollarga javob tariqasida yozilgan “Sart” so‘zi majhuldir” sarlavhali maqolasida har bir savolga birma-bir, dalil va isbotlar vositasida javob bergen. Turkistonlik aholi, u xoh o‘zbek bo‘lsin, xoh tojik, o‘zini “sart” deb atamaydi. Bir-biridan kimligini surishtirganda, “O‘zbekmisan, tojik yoki mullamisan, xo‘ja?” deb so‘rashadi. Turkistonga qo‘shti bo‘lgan hududlar – Balx, Badaxshon, Chahor viloyatlari aholisi, Afg‘onistonda istiqomat qiluvchi fuqarolar O‘rta Osiyo xalqlarini “o‘zbek” deydi, ular “sart” degan so‘zdan bexabardirlar. Eron, Kavkaz va boshqa yerlardagi musulmonlar ham mazkur o‘lka xalqlarini “sart” emas, “turk” yoki “o‘zbak” deb atashadi. “O‘zbaklar” deb ataluvchi qavmlar orasida “sart” degan urug‘ yo‘q. “Temurnoma” va shunga o‘xhash kitoblarda ham “sart” so‘zi uchramaydi, Buxoro o‘lkasidagi aholi orasida ham “sart” degan atama yo‘q, Samarqandning ruslar, qirg‘izlar va qozoqlar bilan ulfatchilik qilmaydigan, matbuot o‘qimaydigan odamlaridan “Sart” degani nima?” deb so‘ralsa, javob berisha olmaydi. “Sart”ning qanday ma’noda qo‘llanilishini biladigan kishilar esa, “sart” atamasi “musulmoncha” degan so‘zning ruschaga tarjimasi bo‘lsa kerak, deydi.

“Turkistonliklarni kimlar “sart” deb ataydi?” degan savolga muallif shaharliklarni, madaniy aholini, forschalar so‘zlashuvchilarni o‘lkaning shimoliy qismida yashovchi sahroyi xalq “sart” deb atashsa kerak, degan fikrni bidiradi. Buning dalili sifatida u qozoq, qirg‘iz va tatarlar Turkistondagi shahar yoki

qishloqlarda yashovchi aholini, turkiycha yoki forscha gaplashishlaridan qat'i nazar, "sart" yoxud "sort" deb atashlarini keltiradi.

Ayni paytda, Mahmudxo'ja Behbudiy "sart" so'zining ma'nosini aniqlashga, turkistonliklarni nega "sart" deyishlarining sababini bilishga intiladi. Muallifning fikricha, "sart" so'zining asli ma'lum emas. Men qozoqlardan "Kimlarni "sart" deysizlar?" deb so'raganimda, ularning ayrimlari "tojiklarni", ba'zilari "sartlarni" deb javob berishdi. "Nega ularni "sart" deysizlar?" deb so'raganimda esa, "Qattiqtabiatligi, quvligi uchun", ayrimlari "Bizning cho'lning sirtida o'tirgani uchun" deb javob berishganini keltiradi. Ba'zi bir qozoqlar esa, "Sirdaryoning narigi yog'idagilarni "sart" deymiz", deganlar. Bularni, tabiiyki, Behbudiy ilmiy javob tariqasida qabul qilmagan. Tarix va adabiyotga doir ilmiy adabiyotlarda, qomuslarda ham "sart" so'zining ma'nosini topib bo'lmadi, deydi u. Shunday bo'lsa-da, Behbudiy "Turkistonning tojik va o'zbek xalqlarini "sart" demas. Turkiston forsiylarida o'zlarini "sart" demaslar. Turkistoniyarning eskilar va yangilar, ulamolar va juhalolar (johillar, bu yerda avom ma'nosida) go'yo ittifoq ila bilmam na uchun, "sart"likdan orlanurlar. Turk ismlari badalinda (o'rnida) "sart" deyilsa, orlanmak-da lozimdir".

"Sart" so'zini qozoqlar qanday ma'noda tushunishlari haqida muallif shunday deydi: "Sart" so'zi nadir?" deb ruslar bir qozoq tarjimonidan so'ragonida, "Asli sarig' ... va oni tarkim va taxfif etib "sart" demishlar" degonida, o'yla qozoqni aslida qizil ... emishda muxaffiy qozoq atalmish yo'linda bir muqobilg'a duchor o'lmishdir". Bu yerda Mahmudxo'ja Behbudiy qozoqlar "sart" so'zini "sariq it" ma'nosida tushunadi, degan fikrni or qilganidan to'liq keltirmay, "it" so'zi o'rnida ko'p nuqta qo'yib ketganki, bu bilan yurtdoshlarini "sart" deb atashlaridan nomus qilganini bildirgan. Ayni paytda, bir xalqni "sariq it" deb atagan qavmning o'zini ham muqobil tarzda mazkur xalq haqoratli so'z bilan atashlari tayin ekanagini ta'kidlab o'tadi. Bu fikr faqat qozoq-qirg'iz qavmlarigagina taalluqli bo'lmay, balki mustabidlarga ham tegishli ekanini payqash qiyin emas.

Dastlab “sart” so‘zining ma'nosini topish, nega o‘zbeklarni shu nom bilan atashlari masalasi ilmiy muammo tarzida muhokama va munozaraga sabab bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning maqolasidan so‘ng “Sho‘ro” jurnalida Rossiyaning turli shahar va qishloqlarida yashayotgan kishilardan “sart” so‘zining kelib chiqishi, anglatgan ma'nolari, tarixiy manbalarda uchrashi, zamonaviy adabiyotlarda qo‘llanilishiga oid katta-kichik materiallar ko‘plab bosildi. Jumladan, samarqandli Hoji Muin Shukrullo XV-XVI asrlarda yashab ijod qilgan adib Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonida uch o‘rinda “sart” so‘zi uchrashini yozsa, “Ma'oziy” imzoli kishi Sulaymon afandi Qunduziyning “Lug‘oti chig‘atoy” asarida tojik va forslarni “sart” deyilganidan xabar beradi.

Samarqandlik Baqoxo‘ja bin Said Hodixo‘janing “Sart” lafzi aslsizdir” sarlavhali maqolasi (“Sho‘ro”ning 1911 yilgi 24-soni), g‘uljalik F.Yunchi va moskvalik Oqchurunning “Sart” so‘zi haqinda” degan umumiylar ostida chop etilgan materiallari ham (1912 yilgi 9-son) qimmatli ma'lumotlarga boyligi bilan xarakterlidir. Baqoxo‘ja “sart” so‘zi bilan bog‘liq fikrlarini muxtasar tarzda 22 bandda ifodalagan. Uning fikricha, Turkistonda istiqomat qiluvchi xalqlar – o‘zbek, tojiklarning ismlari qadimgi atamalardir. “Sart” so‘zini qozoq, qirg‘iz qavmlari shahar va qishloqlarda yashovchi turkiy va tojiklarga nisbatan ishlatganlar. Mazkur qavmlar qo‘llagan “sart” so‘zida haqorat ma'nosи bor (“sariq it”).

Baqoxo‘ja rus va yevropalik sharqshunoslar I.Geyer, N.Ostromov, D.Logofet, G.Vamberilarning kitoblarida “sart” so‘zi nima, sartlar kimlar degan masalada fikrlar mavjud, lekin bularning aksarisi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Qozoq olimi Sherli Lapinning bu borada tutgan yo‘lini ma'qullah kerak, deydi. Sh.Lapin o‘zbeklarni sart deyish to‘g‘ri emas, balki o‘z nomi bilan aytish lozim, deydi va o‘z kitoblarida shu nomni qo‘llaydi. Baqoxo‘ja Samarqand viloyatida yashovchi millat va elatlarning soni bo‘yicha statistik ma'lumotlar keltiradi. Bunda o‘zbek, tojik, qozoq, arab kabi qavmlar sanaladi. Bular orasida “sart” degan nom uchramaydi. Xulosa tarzida muallif yozadi: “...turk-o‘zbek aholisini umuman

“sart” demak va yozmak insofsizlik, istibdodroy, boisi shubha va tafriqdir, buyuk xatodur!”

F.Yunchi Turkistonni kezgan sayyohlar bu yerdagi ma'lum aholini “sart” deb ataganlarini keltiradi. Jumladan, ular Toshkentdag'i va Sayxun (Sirdaryo) bo'yidagi o'troq aholini “sart” deb ataydilar. Abulg'oz'i Bahodirxonning tarixga oid asarlarida Xiva atrofida istiqomat qiluvchilarga nisbatan “sart” so'zi ishlatilgan, so'nggi vaqlarda Buxoro tomonlarda ham u paydo bo'ldi, “yuraksiz”, “yalqov” ma'nolarida qo'lanilyapti, degan ma'lumotni keltiradi.

Oqchurin esa, rus sharqshunoslaridan Radlovning “sart” so'zi sanskrit (qadimgi hind)cha bo'lib, “savdogar”, “tujjor” ma'nolarini anglatadi, deb yozganligini eslatadi.

Ismoilbek Gasprinskiyning ham bu haqda maqolasi bor. Shuni aytish kerakki, ilmiy xarakterda boshlangan munozara asta-sekin siyosiy tus oladi. Yuqorida ko'rganimizdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Baqoxo'jalar bu nomning zamirida Turkiston o'lkasining yerli xalqlariga nisbatan haqorat mavjudligini, mustabidlik siyosatining “og'u”si aralashganligini sezganlar. Milliy g'ururi toptalib kelayotgan mazlum millatlar vakillari mazkur bahs boshlangach, o'zbek xalqini tahqir aralash “sart” deb atashlariga qarshi chiqishlari bilan istibdodga qarshi o'ziga xos isyon ko'targanlar. Shu bois mazkur bahs oradan ikki-uch yil o'tib, Turkistonda chiqadigan gazeta va jurnallarga ham ko'chdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy “Sart so'zi majhuldir”, “Sart so'zi ma'lum bo'lindi” kabi maqolalar yozdi. U mulla Abdullabekning “sart” so'zining ma'nosi sharqshunoslar tomonidan aniqlandi, shu bilan bu masala hal bo'ldi, degan fikriga qo'shilmaydi. Gap, uningcha, “sart” so'zining etimologiyasi, anglatgan ma'nosida emas, balki Turkistonda yashovchi turk-o'zbek xalqini nega “sart” deb ataydilar, bu na ilmiy, na tarixiy jihatdan asosga ega. Bunda qandaydir milliy kamsitish, haqorat mavjud. Shu bois o'zbek xalqini “sart” deb atash barham topib, uni o'zining qonuniy nomi bilan atamaguncha, bu masalani hal bo'ldi deyish mumkin emas, degan hisoblaydi. Uning bu masaladagi fikri shunday: kim bo'lmasin, u mustabidmi, boshqa xalq vakilimi, ikkinchi bir xalqni milliyat nuqtai nazaridan

kamsitishga, haqorat qilishga haqqi yo‘q. Qozoq, qirg‘iz, tatar qavmlarining o‘z qarindoshlarini haqoratomuz “sart” so‘zi bilan atashlari nojoizdir. O‘zbek millatini “sart” deb atash mustabidlik siyosati tug‘dirgan illatdir, bu xalqni o‘zining nomi bilan atash kerak.

Ko‘ramizki, Mahmudxo‘ja Behbudiylar o‘zbek xalqini haqoratomuz “sart” deb atashlariga “norozilik” bildirishgacha borgan. Bunday xislat xalqimizning ornomusli barcha farzandlariga ham xos bo‘lgan. Jumladan, Kabir Bakir “Qardoshlik nomina” sarlavhali maqolasi “o‘zbek” so‘zi o‘rniga “sart” deb ishlatilayotgani uchun o‘n ikki nafar o‘zbekning taassuf bildirilgan maktubi munosabati bilan yozilgan. Maqola muallifi Turkiston o‘zbeklarini matbuotda “sart” deb ishlatilishiga norozilik belgisi sifatida bundan ikki yil muqaddam muzokazara bo‘lib o‘tganini aytadi. Unda Turkistonda yashovchi butun ziyoli, ruhoniy, tujjor – butun xalq “missionerlar tarfidan berilgan aslsiz “sart” lafziga nafrat” izhor etishganini, shunga qaramay, hamon matbuot sahifalarida “sart” so‘zini qo‘llash hollari sodir bo‘layotganidan norozi bo‘lishganini yozganlar. Atoqli adib Abdulla Qodiriy ham o‘beklarni tatar gazetalarida “sart” deb atashlariga qarshi piching aralash “Sart” og‘a-inilarga” degan hajviyasi bilan chiqqan edi. Xullas, o‘zbek ziyorilari o‘zlariga nisbatan haqorat sanalgan “sart” nomi bilan atashlariga qarshi qat’iy norozilik bildirganlar.

Millat farzandlarida bunday umumiylar norozilikning tug‘ilishiga publisist Mahmudxo‘ja Behbudiyning maqolasi sabab bo‘lgandir. Behbudiylar, millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda bo‘ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e’tibor berdi. “Hayot va mamot masalalari qadar muhim bo‘lgan necha masalalar ko‘zimiz oldig‘a turgan holda alarni ehmol etub, faqat sart so‘zi ila shug‘ullanib, fursatlarni bo‘shqa o‘tkarmoqlik yaxshi emas”, deb yozadi u. “Lekin, - davom etadi, - yovrupalilar qoshida milliyat masalasidan muhim va muqaddas tutilgan bir zamonda bizlar ham milliyat masalasidan sanalgan “sart” haqida goh-goh bahs etub, milliyatimizni xotirlab turganda, zarar ko‘rmasmiz”.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, XX asrning 20-yillariga kelib, xalqimizning rasman “o'zbek” deb atalishida Behbudiyning munosib hissasi bor, deyish mumkin.

Umuman, Behbudiyning publisist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. U XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi.

## **2.2. Adib ijtimoiy-siyosiy maqolalarida millat manfaatlarining ifodalanishi**

Mahmudxo‘ja Behbudiy, eng avvalo, milliy uyg‘onish harakatining ulkan siyosiy rahnamosi sifatida maydonga chiqdi. Shuning uchun ham mutaxassislar uni “Turkiston jadidchilik harakatining boniysi”<sup>27</sup>, deya e’tirof etadilar. “Murakkab va fojiali asrda yashab, o‘zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy taraqqiyotiga beباho hissa qo‘sghan”<sup>28</sup>ini ta’kidlaydilar.

Manbalarning guvohlik berishicha, siyosat bobida u o‘tkir nazariyotchi, shuning barobarida, faol amaliyatchi ham bo‘lgan. Bu boradagi nazariy qarashlari uning “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiylar va namunai jug‘rofiya” darsligida, “Duma va Turkiston musulmonlari”, “Xayr ul-umuri avsatuhu”, “Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz” va shu kabi maqolalarida ifodasini topgan.

“Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiylar va namunai jug‘rofiya” darsligida Behbudiy o‘sha davrdagi boshqaruv usullari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Zero, millat yoshlarining siyosiy ongini yuksaltirish, avlod dunyoqarashini o‘stirish ziyorilar oldida turgan dolzarb vazifalardan, taraqqiyotning muhim omillaridan edi. Behbudiy o‘sha davrga xos uch xil boshqaruv usuli haqida yozadi:

- 1) idorai mustaqalla (idorai mutlaqa);
- 2) idorai mashruta; 3) idorai jumhuriyat<sup>29</sup>.

Allomaning yozishicha, “idorai mustaqalla”ning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bunda hukmdorning istagi – qonun, ya’ni u sohibi ixtiyor. Boshqacha aytganda, vakolatlari mutlaqo cheklanmagan;
- qo‘l ostidagi barcha majlis, maslahatxonalar xukmdorga bo‘ysunadi, uning aytgani aytgan, degani degan;
- hukumat, valiyyatlik qoidalari asosida, “o‘shal hukumatni qo‘ygan tartib va tadbirig‘a muvofiq” bo‘ladi.

**Idorai mustaqalla davlat boshqaruvining monarxiya usuliga to‘g‘ri keladi.**

<sup>27</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент, “Маънавият”, 2002, 217-бет.

<sup>28</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2008, 37-бет.

<sup>29</sup> Маҳмудхўжа Бехбудий. Таъланган асарлар. 3-нашлири. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Б.Қосимов). Тошкент, “Маънавият”, 2006, 243-244-бетлар.

Behbudiylar tahlil etgan *ikkinchi usul* – *idorai mashruta* mana bu xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- bu hukumatga tobe odamlar aksari dunyodan xabardor ilm ahllari. “El va urug‘lari ilm, hunar va dunyo ishlarig‘a taraqqiy qilgan”;
- fuqarolar o‘z oralaridan insofli, ilm va dunyodan xabardor kishilarni o‘zlariga rahbar va boshqaruvchi vakil etib saylaydilar;
- “saylangan vakillarni podshoh muqarrariy mahkamalarg‘a, mamlakatdorlik ishlarig‘a jamlaydi... Alarni(ng) majlis va mahkamalarini “millat majlisi”, “maslahatxona”, “parlament”, “go‘sudarski dum”, “majlisi sinodiy”, “el majlisi” degan ismlar ila yod qiladur”;
- “Millat majlisi” a’zolari hukumatni mashvarat bilan boshqaradi. Hukmdor bu majlis amriga bo‘ysunadi. Mamlakat taqdiri bilan bog‘liq masalalarni shu majlisda muhokama etmay, o‘z xohishicha hal etolmaydi.

Mamlakat boshqaruvining bu usuli konstitutsiya va parlamentga tayanuvchi davlat xususiyatlariga muvofiq keladi. Parlament, duma, senat, millat majlisi singari qonun chiqaruvchi organlar haqida bundan yuz yil avval fikr yuritgani Behbudiyning siyosatchi sifatida nechog‘lik yetuk bo‘lganidan darak beradi.

Behbudiylar ta’riflagan *uchinchi usul* – *idorai jumhuriyatning o‘ziga xosligi* quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- aksar fuqarosi ahli ilm. Keng dunyoqarashli aholi saylangan vakillar o‘z mamlakat va hukumatini boshqarmog‘i uchun oralaridan bir nafar donishmand odamni boshliq etib saylaydi. U “raisi jumhuriyat”, “sadrinoshini millat” yoki “prezident” deb ataladi;
- bunday hukmdor har bir hukm va amrini “Millat majlisi” tuzib bergen dasturulamal, ya’ni qonun va nizomnomalarga muvofiq amalga oshiradi;
- bu usul asosida boshqariladigan hukumatda “Millat majlisi” katta vakolatga ega. Hatto vazir va unga tenglashtirilgan mansabdorlarni taftish qilish, tergovga tortish, lavozimidan ozod qilish huquqlariga ega.

Boshqaruvning “idorai jumhuriyat” usuli, zamonaviy ibora bilan aytganda, chinakam huquqiy demokratik davlat xususiyatlarini o‘zida mujassam etgani bilan alohida ajralib turadi.

“Hozirgi Ovrupo hukumatlarini(ng) raftori, odati shu uch usulni(ng) birig‘a doxil, tobe va muvofiqdir, – deb yozadi Behbudi. – Mustaqil hukmdorlarni(ng) qo‘l ostig‘a ham majlislar va mashvarat mahkamalari bordur. Ilmsiz hukumatlardek necha milyo‘n xalqni(ng) maishati, raftori, ixtiyor bir nafar odam – podshohni(ng) ixtiyor yo royi va hukmig‘a tobe emasdur. Bir nafarni(ng) aqli, fikri ila o‘n nafar arosig‘a na qadar farq bordur? Ushbu sabablardandurki, ozgina Ovrupo xalqi butun kurrai arzg‘a hokim va mutasarrifdurlar”.

Behbudiyning bu fikrlari barcha zamonlar uchun bidayah ahamiyatli. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bugungi islohotlardan ko‘zlangan bosh maqsad ham, ulug‘ millatparvar orzu qilganidek, mamlakat boshqaruvida har bir fuqaro ishtirok eta oladigan mutaraqqiy jamiyatni barpo etishdan iboratdir.

Behbudiy olamda kechayotgan voqelik mohiyatidan xabardor, siyosiy vaziyatni to‘g‘ri baholay biladigan yetuk arbob edi. Uning “Xayr ul-umuri avsatuh” maqolasidagi fikrlar ham buni tasdiqlaydi. “Hozir Rusiya davlati(ning) tariqi hukmronligi noqis ekanligiga har bir xabarlik kishi iqror etar, – deb yozadi Behbudi. – Davlat qonunlarini(ng) isloh va tajdidig‘a har kim moyildur”.

Bugun mamlakatimizda ko‘ppartiyali tizim real voqelikka aylandi. Behbudiyning bundan bir asr muqaddam siyosiy partiyalar haqida bildirgan fikrlari Vatan va millat manfaatini ko‘zlagani, bugungi kun uchun ham ahamiyatli ekan bilan diqqatga sazovordir. Alloma “Rusiyadagi barcha xaloyiq... necha asosg‘a bo‘lungan”i, “bu siyosiy firqalarni(ng) har birig‘a har bir mazhab va din ahlidan qo‘shulgan”i haqida fikr yuritar ekan, to‘rt siyosiy partiya faoliyatiga baho beradi. Ular: 1) buyro‘kratiyai mustabid; 2) kadet mashruta; 3) Sotsial-demokraticheski (ishtirokiyuni ommaviyun); 4) Rusiya musulmonlari ittifoqi firqalaridir.

Behbudiyning ta’kidlashicha, “Buyro‘kratiyai mustabid” firqasi “eski tarz hukumat davomini xohlaydur”. Davlat boshqaruvining idorai mustaqalla turini

yoqlovchi bu firqa faoliyati turkistonliklar uchun zararli. Binobarin, bu firqaning yo‘li amalga oshsa, “...biz va bizg‘a o‘xshashlar tanazzul qilub, ohistalik ila firqasi, toifasi, Vatani xor va xarob bo‘lub, batadrij yo‘q bo‘lmoq xavfi vordur... Al'on biz – turkistoniyalar shu hol maqdamasig‘amiz”<sup>30</sup>.

Behbudiyning ushbu so‘zlari uning Vatan va millat taqdiri uchun nechog‘liq kuyungani, ona yurti tanazzulidan naqadar hasrat va nadomat chekkani dalilidir.

Kadet mashruta firqasi, Behbudiy fikricha, o‘rta firqadir. Hyech qanday masalada ifrotga bormaydi, ya’ni haddidan oshmaydi. Shuningdek, tafritga – sustlikka ham yo‘l qo‘ymaydi, “...sog‘ ila so‘l vasatig‘a, har bir fikr va matlabni(ng) avsati va markazig‘a birlashgan bir hizbi mutavassit”dur. Ya’ni bu firqa o‘ngga ham, so‘lga ham og‘maydi, har bir fikr va g‘oyada barchaga birday ma’qul bo‘lgan o‘rta yo‘ldan boradi. Shu bois ham, Behbudiy to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “...mo‘tadil ul-mizoj xalqlar bu partiyani xohlagandurlar”.

Sotsial-demokraticheski (ishtirokiyuni ommaviyun) partiyasi o‘z ichida yana ikkiga bo‘linadi:

- 1) ishtirokiyuni ommaviyun;
- 2) sotsial revolutsion.

“Bularni(ng)... murodi, – deb yozadi Behbudiy, – hozirgi barcha zakun, mulkiyat qoidalarini butun buzub, mol va yerlarni hamma xaloyiq o‘rtasig‘a mushtarak qilib, ani butun xaloyiq o‘rtasida musoviy (teng barobar) etmoqchidur. Boylik va kambag‘allikni yo‘q qilib, dunyo moli(ning) rohatidin hammani barobar foydalanturub, mas‘ud va rohat umr o‘tkazilmoqig‘a va har kim o‘z istiqbolidin amin bo‘lmoqig‘a zakun va qoida joriy qilmoqchidurlar”.

Bu partiya faoliyatiga baho berar ekan, Behbudiy uning dasturi xayoliy ekanini, “bu toifaga qo‘shulmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlik” bo‘lishini uqtiradi. Ta’kidlash kerakki, Behbudiy bu borada ustozи Ismoilbek Gasprali bilan hamfikr edi. Gaspralining sotsializmga va unga asoslangan jamiyat

---

<sup>30</sup> Махмудхўжа Бехбудий. Таъланган асарлар. З-нашри. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Б.Қосимов). Тошкент, “Маънавият”, 2006, 147-бет.

qurish fikrini ilgari surgan partiya faoliyatiga bergen quyidagi bahosi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: “Sotsializmga doir ilgari surilgan fikrlarning g‘ayriaxloqiy bir savdoyi xayoldan iboratligini, bilmadim, gapirishga hojat bormi? Menimcha – yo‘q. Eski usulni tashlamoqchi bo‘lgan sotsialistlar yomg‘irdan qochib qorga tutilgan kimsalarga o‘xshaydi. Tamoman barobarlik emish! Ham moddiy, ham ma’naviy. Insonlar yaratilishda barobar yaratilmaydilarku! Ba’zimizda quvvat, ba’zimizda zehn ko‘proq bo‘ladi. Meros bo‘lmasmish! Bu nima degani? Ota nafsi qiyib, bolalariga nimadir to‘playdi, lekin u o‘rtaga qo‘yilib, har kimga taqsim qilinadi! Buning nimasi barobarlik? Nimasi adolat?.. Gapning qisqasi, butun mamlakat, inson jamoasi bir kazarmaga aylanadi: aholi burg‘u bilan turadi, burg‘u bilan ishga ketadi, burg‘u bilan umumiy dasturxonaga chaqiriladi, burg‘u bilan zavqu safo oladi, burg‘u bilan biror xotinni istirohatga tortadi... Ofarin, sotsialistlar! Naqadar “go‘zal” bir “madaniyat”, naqadar “go‘zal” bir yashash tarzi qurmoqchi ekansiz!”<sup>31</sup>

Bu fikrlarda bir oz bo‘rttirish yo‘q emas. Lekin undagi kuchli mantiqni ham inkor etish mahol. Sotsialistik davlatlar keyinchalik ham “barchani teng qilish” g‘oyasini amalga oshirishga uringan bo‘lsada, bunga erisha olmagani kunday ravshan! Shuning o‘ziyoq sotsializmning hayotiylikdan yiroq bir g‘oya bo‘lgani isbotidir.

Rusiya musulmonlari ittifoqi haqida mulohaza yuritar ekan, Behbudiy bu partiyaning “a’zoi markaziya”siga olti millionlik Turkiston musulmonlaridan bir nafargina a’zo olingani to‘g‘ri emasligini ta’kidlaydi. “Besh oblustdan 30 nafar, ham Buxoro va Xiva va Turkistoni Chiniydagi musulmonlardan bittadan a’zo olmoq lozim”, deya o‘z taklifini bildiradi u. Bugina emas, Behbudiy Rusiya musulmonlari ittifoqi siyosatan kadetlar bilan hamkorlikda ish olib bormog‘i zarur, deb hisoblaydi. Chunki kadetlar partiyasi dasturida bayon qilingan quyidagi fikrlar Turkiston va uning musulmon aholisi manfaatlariga har jihatdan muvofiq edi:

- har toifa o‘z hayotini o‘z kitobi, e’tiqodi va dini bo‘yicha qurishi mumkin;

---

<sup>31</sup> Гаспрали И. Оврупо маданиятига бетарафона бир назар. – Ҳаёт ва мамот масаласи. Тошкент, “Маънавият”, 2006, 61-бет

- Rusiyadagi barcha xalqlar barobar. “Qonunda har bir millat hurriyat diniya, hurriyati shaxsiya, hurriyati ijtimoiya, hurriyati ittifoqiya asosida hayot kechirmog‘i kafolatlanishi” zarur;

- har bir qonun xalq saylagan vakillar qaroriga muvofiq qabul qilinishi, xalq vakillari xohlamagan eski zakunlar isloh etilishi lozim.

Siyosiy partiylar xususidagi fikrlarini xulosalar ekan, Behbudiy ziyoli yurtdoshlarini Vatan va millat sha'ni yo'lida shaxsiy g‘araz va nafsoniyatdan yuqori turishga da'vat etadi. “Turkistonning muhtaram muallif, muharrirlari g‘araz, nafsoniy hasad, bahs va munozarai shaxsiyalarini tark etib, shu maslak va shu jamiyatg‘a tobe va xodim bo‘lmoqlari xizmati din va davlat, obro‘yi Vatan va millatduri<sup>32</sup>, deb yozgan edi u.

Behbudiy siyosat bobida nainki yetuk nazariyotchi, zo‘r amaliyotchi ham bo‘lganini ta’kidlagan edik. Birgina misol. U 1907 yildayoq (Turkiston muxtoriyati e’lon qilinishidan o‘n yil oldin!) “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”ni tuzib, ko‘rib chiqish uchun Rusiya Davlat Dumasiga taqdim etgan edi. Mazkur loyihani 2001 yili Haarlemda (Hollandiya) nashr etilgan “Turkistonda yangilik harakatlari va ixtiollar. 1900-1924” nomli to‘plamdag‘i matn asosida o‘zbek matbuotida ilk marta professor Begali Qosimov e’lon qilgan.<sup>33</sup>

Mana, u mazkur loyihada nimalarni yozadi: “Millatimizi iste’dodsiz va idorai doxiliya va aftonomiyani(ng) ijro va hifzig‘a qodir emas zam eduvchilar (gumon qiluvchilar, albatta xato edarlar. Ovrupoyi rus musulmonlaridan ziyodaroq aftonomiyani Turkistong‘a berilmog‘i lozimdur. Azbaski (chunki), turkistonlilar hanuz doxilan o‘zini o‘zi idora edar. Va ovrupoyi Rusiyadagi qardoshlarimizdan ixtiyorlidurlar”.

E’tirof etish kerak, “Turkistonga avtonomiya berilmog‘i lozim” ekani haqida Rusiya Davlat Dumasiga murojaatnomasi yozish, hatto uning bandmaband

<sup>32</sup> Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. З-нашри. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов). Тошкент, “Маънавият”, 2006, 150-бет.

<sup>33</sup> Қосимов Б. Бехбудийнинг “Туркистон маданий муҳторияти лойиҳаси ҳақида. //“Жаҳон адабиёти”, 2003, 8-сон, 146-156-бетлар. (Бундан кейин ушбу манбадан олинганд иқтибосларнинг сахифаси қавс ичидаги кўрсатилади).

tuzilgan loyihasini taqdim etish o'sha mustabid tuzum sharoitida chinakam jasorat edi.

Professor Begali Qosimov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tabiiyki, madaniy muxtoriyat tushunchasi siyosiy, iqtisodiy mustaqillik da'vosini o'z oldiga qo'ymaydi. Millatning milliy-madaniy turmushiga riosa etilishinigina talab qiladi. Va shu orqali uning o'zligini saqlab qolish umidi bilan yashaydi. Bu mustaqillikka tomon qo'yiladigan birinchi qadam edi, xolos".

Shunga qaramay, Behbudiy ilgari surgan talablar ma'lum ma'noda siyosiy ahamiyatga ham ega edi. Loyihaning dastlabki bandidayoq "Davlat Dumasi uchun Turkistonning adadi nufusi islomiyasig'a (musulmon aholi soniga) mutanosib vakil saylansun" deyilishi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. 1907 yil yanvar-fevralida 2-Davlat Dumasiga bo'lgan saylovlarda qariyb besh yarim millionlik tubjoy aholidan 6, bir hovuch (322 ming) rusiy zabonlardan 7 kishi saylangani ham Behbudiyning "adadi nufusi islomiyag'a mutanosib"(!) vakillar saylanishi haqidagi talabi nechog'li o'rinali bo'lgani dalilidir.

Loyihaning qimmatli jihatlaridan yana biri shundaki, Behbudiy Davlat Dumasiga Umumrusiya musulmonlari diniy va hayotiy ishlari boshqaruvinining ancha mukammal tizimini tavsiya etadi. Uning fikricha, bu tizim quyidagicha bo'lishi kerak edi:

- Peterburgda bir mahkamai islomiya barpo etilishi zarur;
- bu mahkamaga diniy va zamonaviy ilmga mohir muslim saylov asosida muayyan vaqt rahbarlik qilmog'i lozim;
- bu muassasaning moddiy va ma'naviy ta'minoti Rusiya musulmonlari ittifoqi a'zolari hamda Davlat Dumasidagi muslim fraksiyasi vakillari maslahatiga asosan amalga oshirilmog'i kerak;
- Toshkentda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi tashkil etilmog'i, unga "birinchi daraja ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi saylov ila besh yil muddatga tayinlanib, shayxulislom atalishi" zarur;

– har bir viloyatda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasining shu'basi va huquqiy hukm va talablarni o‘rniga keltiruvchi ijroiya mahkamasi tashkil etilishi lozim.

Behbudiyning chinakam siyosatdonligi yana shunda ko‘rinadiki, u Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliya mahkamasi va shu'balarida faoliyat yurituvchi mas'ul shaxslar tarkibi haqida aniq tavsiyalar berish barobarida o‘lkada yashovchi shia mazhabi vakillari, shuningdek, yahudiylar masalalarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Jumladan, uning fikricha, “Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasida hama yerli yahudiylardan saylov ila bir nafar yahudiy olimi ishtirok edar”. Shuningdek, “...shi'atul mazhab musulmonlarini(ng) faqat rusumi mazhabiyalari to‘g‘risinda oid teyishli fatvolarni Zakavkaz shi'a shayxulislom majlisindan so‘rab, ul qarorg‘a muvofiq shi'alar ila rusumi mazhabiya haqinda muomala edar. Boshqa vajhg‘a sunniy ila shi'a orasig‘a farq bo‘lmasa kerak”.

Ushbu fikrlarga tayanib, Behbudi yuzgan “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”da o‘lkada yashovchi o‘zga din va mazhabdagi kishilar huquqini ham to‘liq kafolatlash nazarda tutilgan, deyish mumkin. Bu, o‘z navbatida, Behbudi y millat va milliyat masalalarini mezon deb bilar ekan, boshqalar huquqini kamsitishdan, azamattalablik (shovinistik) qarashlardan ancha baland turganini ko‘rsatadi.

Loyihada, bundan tashqari, quyidagi e'tiborga molik talablar ilgari surilgan:

- qozixona doirasidagi barcha hujjatlar mahalliy tilda yozilishi kerakligi;
- Rusiya adliya mahkamalari saylovida va undagi mansablarga saylanmoqqa musulmonlar haqli bo‘lishi;
- Turkiston maishatidan xabarsiz yuristlarning Turkiston adliya mahkamalariga hokim tayinlanmasligi;
- mavjud qattiq nizomlar va chinovniklarga berilgan hadsiz ixtiyor bekor qilinishi;
- Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratidan ozod etilishi;

– umumiyl o‘rta va oliv maktablarga musulmonlardan komissiya tayinlanishi, rus harfini musulmon maktabiga joriy etmaslik;

– Turkiston xalqi talab qilmaguncha Turkistonga muhojir yuborilmasligi;

– Turkiston shaharlari ichidagi yerlar xoh muvaqqatan, xoh abadiy bo‘lsun, g‘ayrimusulmonlarga berilmasligi.

“Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi” yozilgan davrdagi murakkab va ziddiyatli siyosiy vaziyat e’tiborga olinsa, bunday talablarni qo‘yish, yana uni Davlat Dumasiga taqdim etish boshni kundaga qo‘yish bilan barobar bo‘lganini his etish mumkin.

Ham nazariyotchi, ham amaliyotchi sifatida o‘z davrining yetuk siyosatdoni bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudi shuning uchun ham 1917 yil 16 noyabrida e’lon qilingan Turkiston muxtoriyatining – mustaqillik sari qo‘yilgan dadil qadamning faol tashabbuskorlaridan, ma’naviy rahnamolaridan bo‘ldi. U bunday deb yozgan edi: “27 noyabrda Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati umumiyl musulmon s’ezdida e’lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsun! Kamina ham majlisda bo‘lushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!” Bu so‘zlar ulug‘ millatparvarning qalb nidosi edi.

Behbudi Turkistondagi barcha xalqlarni, tilidan, diniy mansubligidan qat‘i nazar, ittifoq bo‘lishga, umumiyl manfaat yo‘lida birlashishga, Turkiston muxtoriyatini saqlab qolishga chaqirdi. Bu jihatdan uning qozoq birodarlarga yozgan ochiq xati alohida qiymatga ega.

“Bovurlar! – deb yozgan edi u. – Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunun, muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Ya’ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o‘zi birlashib, g‘ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo‘lidan kelsa, bermaslar. Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘liga sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar. Bul albatta shundaydur va bul so‘zga hyech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya’ni qirg‘iz, qozoq, o‘zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi,

Qozog‘istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg‘a kelishiga sa'y va ehtimom etmog‘imiz lozimdir...”.

Mahmudxo‘ja Behbudi shunday yoniq, haroratlari so‘zlarni yozar ekan, dunyodagi boshqa xalqlar hamjihatlikka nechog‘li intilayotganini misol keltiradi. Turkistonliklarni ulardan o‘rnak olishga da'vat etadi, aks holda oqibat qanday bo‘lishi mumkinligini aytib, quyidagicha ogohlantiradi:

“Chirog‘larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanilar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe bo‘lub, yutulub, hatto tilini yo‘qotgan o‘z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg‘a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o‘z ichimizdagи qarindoshlarimizdan ayrilsak uyatdur, ahmoqlikdur, millat tomurig‘a bolta urmoqlikdur”.

Behbudiyning aytgani bo‘ldi. “Boshqalar” Turkistonga muxtoriyat berishni xohlamadi. Turkistonliklarda birlashmadidi. Natijada, muxtoriyat boy berildi, qonga botirildi. Ko‘p o‘tmay, 1919 yili butun ongli hayotini Vatan va millat ozodligi yo‘liga bag‘ishlagan Behbudiyning o‘zi ham mahv etildi. Lekin adibning uyg‘oq ruhi mudom biz bilan birgadir! Zamondoshi, safdoshi Hoji Muin ta'biri bilan aytganda, “uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida birinchi o‘rinni olurga loyiq” adibning asarlari bugun ham milliy-ma’naviy yuksalishga xizmat qilmoqda.

## XULOSA

Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasida millat va milliyat masalalarining yoritilishi masalasi tahlil etilgan ushbu bitiruv malakaviy ishi yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ma'rifatparvar jadidlar, jumladan Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z publisistik asarlarida millat va milliyat masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Adib publitsistikasida millatning o‘scha davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg‘otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolar ko‘tarib chiqildi. Mutafakkirning “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat”, “A’molimiz yoinki murodimiz”, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi” kabi maqolalarida bu muammo, ayniqsa, chuqr tahlil etildi.

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy publisistik asarlarida milliy g‘oya – millatga o‘zligini anglatish, uni taraqqiy etgan xalqlar darajasiga yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Vatan va millat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan illatlar qattiq tanqid qilindi. Zamon talablaridan kelib chiqib, millat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Milliy matbuot ana shu maqsadga xizmat qildirildi.

3. Behbudiy Vatan va millat taraqqiyotini ta'minlashning muhim yo‘li sifatida tarixni o‘rganish masalasiga alohida diqqat qaratdi. “Turkiston tarixi kerak”, “Sart so‘zi majhuldir” singari maqolalarida Vatanning shonli o‘tmishiga nazar soldi. Yangi avlodda buyuk ajodolar erishgan yuksalishga intilish tuyg‘usini uyg‘otish zarurligini his qildi. Publisistik asarlarini ana shu maqsadga xizmat qildirdi.

4. Publisistik asarlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy tarixga murojaat, xalqimizning buyuk o‘tmishini o‘rganish, moziyda Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlagan jihatlardan saboq olish, shu orqali rivojlangan millatlar darajasiga ko‘tarilish kabi masalalarni keng yoritdi. Bu jihatdan Mahmudxo‘ja Behbudiy fikrlari ustozи Ismoilbek Gasprinskiy, zamondoshi Ahmad Zaki Validiy qarashlari bilan har jihatdan hamohangdir.

5. Boshqa jadidlar singari Mahmudxo‘ja Behbudiy ham milliyat deganda milliy til, milliy qadriyatlar, uning sha'ni, sharafi kabi masalalarni tushundi. O‘sha davr sharoitidan kelib chiqib, ikki emas to‘rt til – turkiy, forsiy, arabiylar va rusiy zarurligi haqida yozish barobarida milliy til ravnaqi uchun kuyindi. “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart so‘zi ma'lum bo‘lmadi” singari publisistik maqolalarida shonli o‘tmishga ega turkiy millatni “sart” deb atashlariga e'tiroz bildirdi. Adibning bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

6. “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiylari va namunai jug‘rofiya” darsligida Behbudiy o‘sha davrdagi boshqaruv usullari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Zero, millat yoshlarining siyosiy ongini yuksaltirish, avlod dunyoqarashini o‘stirish ziyorolar oldida turgan dolzarb vazifalardan, taraqqiyotning muhim omillaridan edi. Behbudiy o‘sha davrga xos uch xil boshqaruv usuli haqida yozadi: 1) idorai mustaqalla (idorai mutlaqa); 2) idorai mashruta; 3) idorai jumhuriyat.

Davlat boshqaruvi usullarini tahlil etar ekan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “idorai mustaqalla” – monarxiya usulini qoralaydi, konstitutsiyaga asoslangan boshqaruvni o‘zida mujassam etgan idorai jumhuriyat tarafdori ekanini bildiradi. Adibning bu qarashlari uning siyosiy tafakkuri yetuk bo‘lganini ko‘rsatishi barobarida, Vatan va millat manfaatini har narsadan ustun bilganini ko‘rsatadi.

7. Behbudiy siyosat bobida nainki yetuk nazariyotchi, zo‘r amaliyotchi ham bo‘lgan. Buyuk ma'rifatparvarning 1907 yili, Turkiston muxtoriyati e'lon qilinishidan o‘n yil oldin, “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”ni tuzib, ko‘rib chiqish uchun Rusiya Davlat Dumasiga taqdim etganligi bu fikrni tasdiqlaydi.

Ulug‘ mutafakkir tuzgan “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”da o‘lkada yashovchi musulmonlar bilan bir qatorda o‘zga din va mazhabdagi kishilar huquqini ham to‘liq kafolatlash nazarda tutilgan edi. Bu esa, o‘z navbatida, Behbudiy millat va milliyat masalalarini mezon deb bilar ekan, boshqalar huquqini kamsitishdan ancha baland turganidan, masalaga, bugungi ibora bilan aytganda, umuminsoniy mezonlardan turib yondashganidan dalolat beradi.

8.“Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”da qozixona doirasidagi barcha hujjatlar mahalliy tilda yozilishi kerakligidan Rusiya adliya mahkamalari sayloviga va undagi mansablarga saylanmoqqa musulmonlar haqli bo‘lishigacha, Turkiston maishatidan xabarsiz yuristlarning Turkiston adliya mahkamalariga hokim tayinlanmasligi zarurligidan Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratidan ozod etilishi-yu rus harfini musulmon mакtabiga joriy etmaslikkacha, Turkiston xalqi talab qilmaguncha Turkistonga muhojir yuborilmasligi talabidan Turkiston shaharlari ichidagi yerlar xoh muvaqqatan, xoh abadiy bo‘lsun, g‘ayrimusulmonlarga berilmasligi kerakligigacha keng miqyosdagi masalalar kun tartibiga qo‘yilgan edi.

Ta’kidlash kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan mustabid tuzum sharoitida “Turkistonga avtonomiya berilmog‘i lozim”ligi haqida Rusiya Davlat Dumasiga murojaatnomasi yozish, hatto uning bandmaband tuzilgan loyihasini taqdim etish chinakam jasorat edi.

9.Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston muxtoriyati g‘oyasining nafaqat nazariyotchisi, balki tashkilotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. 1917 yil 16 noyabrida e’lon qilingan Turkiston muxtoriyatining – mustaqillik sari qo‘yilgan dadil qadamning faol tashabbuskorlaridan, ma’naviy rahnamolaridan bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat qirg‘iz, qozoq, o‘zbek, turkman singari turkiy millat vakillari, balki arab, fors, Turkistondagi, Qozog‘istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar, hatto yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq bilan muxtoriyatni amalga oshirishi va saqlab qolishi zarurligi haqida chaqiriq bilan chiqdi.

10. Behbudiy Turkistondagi barcha xalqlarni, tilidan, diniy mansubligidan qat‘i nazar, ittifoq bo‘lishga, umumiyl manfaat yo‘lida birlashishga, Turkiston muxtoriyatini saqlab qolishga chaqirdi. Qozoq birodarlariga murojaat etib ochiq xat yozar ekan, barchani ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Haq berilmasligi, balki olinishini uqtirdi. Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanilar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari bilan birlashishini, o‘zga katta va quvvatli davlatlarga tobe bo‘lub, yutilib, hatto

tilini yo‘qotgan o‘z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoq uchun jon va kuchlarini sarf etar ekan, shonli o‘tmishga ega turkiylar o‘z ichidagi qarindoshlarimizdan ayrilishi uyat, ahmoqlik, millat tomiriga bolta urish bo‘lishini ta’kidladi.

11. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publisistik merosi millat va milliyat masalalari keng yoritilganligi jihatidan milliy o‘zlikni saqlash, milliy ma'rifatning yuksalishi kabi o‘lmas g‘oyalarni o‘zida mujassam etganligi bilan bugungi kunda ham alohida ahamiyatga ega. Adibning bu boradagi qarashlari o‘rganish zamonamiz yoshlari qalbida Vatan va millatga muhabbat tuyg‘usini kuchaytirishga, bu orqali mamlakatimiz kelajagining nurli bo‘lishiga xizma qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. MANBALAR:**

1.1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. З-нашири. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов). Тошкент, “Маънавият”, 2006

1.2. Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар. (Нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, У.Долимов, Н.Жабборов). Тошкент, “Университет” нашриёти, 2004.

### **II. ILMIY ADABIYOTLAR:**

2.1. Гаспринский И. Ҳаёт ва мамот масаласи (Таржимон, тўпловчи, нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, З.Абдирашидов). - Т.: “Маънавият”, 2006

2.2. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. - Т.: “Noshir”, 2012

2.3. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009.

2.4. Жабборов Н. Маърифат надир. - Т.: “Маънавият”, 2010.

2.5. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. Т.: “Фан”, 2006

2.6. Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. - Т.: “Университет”, 2000.

2.7. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. - Т.: “Академнашр”, 2014

2.8.Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: “Ўзбекистон”, 1997

2.9. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. - Т.: “Шарқ”, 2009.

2.10. Пардаев Қ. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни. - Т.: “Мұхаррир”, 2012.

2.11. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Уч томлик. I т. – Т., 1970

2.12. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. Тошкент, “Шарқ” НМАК, 2004.

- 2.13. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2004.
- 2.14. Қосимов Б. Излай-излай топганим. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1983; шу муаллиф. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: “Маънавият”, 2002.
- 2.15. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2002.
- 2.16. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Аҳмедов С., Ризаев Ш. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юртлари филология факультетлари учун дарслик. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2004.
- 2.17. Қосимов Б. Беҳбудийнинг “Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси ҳақида. //“Жаҳон адабиёти”, 2003, 8-сон, 146-156-бетлар.
- 2.18. Qosimov B. O’zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. Tohskent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.